

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O`RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI**

PEDAGOGIKA FAKULTETI

“BOSHLANG’ICH TA’LIM METODIKASI” kafedrası

ABDUQOBILOVA MUBORAK ERKINOVNANING

5111700 - Boshlang`ich ta`lim va sport-tarbiyaviy ish ta`lim yo`nalishi bo`yicha
bakalavr darajasini olish uchun

NUTQ TOVUSHLAIRINING O`ZGARISHI
mavzusidagi

BITIRUV MALAKAVIY ISHI



Ilmiy rahbar:

o`qit. Z.Amirqulova

Termiz–2017

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY VA O`RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI
PEDAGOGIKA FAKULTETI**

“BOSHLANG’ICH TA'LIM METODIKASI” kafedrası

ABDUQOBILOVA MUBORAK ERKINOVNANING

5111700- Boshlang`ich ta`lim va sport-tarbiyaviy ish ta`lim yo`nalishi bo`yicha

NUTQ TOVUSHLAIRINING O`ZGARISHI
mavzusidagi

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Bajardi: Boshlang'ich ta'lim va sport tarbiyaviy ish
ta'lim yo'nalishi bitiruvchi 4-kurs talabasi

_____ **Abduqobilova Muborak Erkinovna**

Ilmiy rahbar:_____o`qit. Z.Amirqulova

Bitiruv malakaviy ish kafedradan dastlabki himoyadan o'tdi.
13/1. 19-aprel 2017 yil.

Termiz -2017

KIRISH.....	3-6
I BOB. “ NUTQ JARAYONIDDA TOVUSHLARNING O‘ZGARISHI “ MODULINING NAZARIY ASOSLARI	
1.1. “ Nutq jarayonida tovushlarning o‘zgarishi” modulida o‘rganiladigan asosiy masalalar.....	6-13
1.2. “Nutq jarayonida tovushlarning o‘zgarishi” modulini o‘qitishga doir zamonaviy yondashuvlar va interfaol metodlar.....	4-22
II BOB. “ NUTQ JARAYONIDA TOVUSHLARNING O‘ZGARISHI” MODULINING O‘QUV-USLUBIY TA’MINOTI	
2.1. O‘quv fani dasturining qisqacha tavsifi.	23-29
2.2. Ma’ruza matni.. . . .	30-48
2.3. Amaliy mashg‘ulotning texnologik xaritasi. Nazorat topshiriqlari va mustaqil ta’lim yuzasidan ko‘rsatmalar.	49-60
2.4. Fan yuzasidan keyslar to‘plami, amaliy topshiriqlar, ishlanmalar.	61-79
2.5. Mustaqil ta’limni tashkil etishning shakli va mazmuni	81-83
2.6. Glossariy	84-88
Xulosa va tavsiyalar.. . . .	89-91
Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.	92-94

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi: Har qaysi xalqning ona tili va adabiyoti uning milliy ruhi va o'zligining, madaniy-ma'rifiy olami, milliy g'oyasining asosi hisoblanadi. Ma'rifatparvar bobomiz Abdulla Avloniyning "Har bir millatning borlig'ini ko'rsatadurgan oyinai hayoti til va adabiyotidir. Milliy tilni yo'qotmak – millatning ruhini yo'qatmakdur" degan hikmatli so'zlari ham bu fikrni yaqqol tasdiqlaydi.

Shuning uchun ham qachonki bosqinchi va istilochi kuchlar el-yurtimizni o'ziga qaram qilmoqchi bo'lsa, avvalo, uni o'z tili va dinidan, tarixi va madaniyatidan, milliy g'ururidan judo etishga uringan. O'lkamiz qaramlik changaliga tushib qolgan istibdod davrlarida ona tilimizning rivojlanish imkoniyatlari cheklab qo'yilgani hech kimga sir emas.

O'zbek tilining har tomonlama taraqqiy topishi va adabiy til sifatida maydonga chiqishida qadimiy turkiy til hissa qo'shganini alohida ta'kidlash tabiiydir. Shu borada Mahmud Qoshg'ariy, Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yugnakiy, Atoiy, Sakkokiy, Lutfiy kabi ilmu fan va adabiyot namoyandalarining xizmati va qoldirgan merosi muhim o'rin egallaganini qayd etish joiz.¹

O'zbekiston Respublikasida shaxsni intellektual, ma'naviy-axloqiy, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning muhim shartlaridan biri, ta'lim tizimini, ayniqsa, boshlang'ich ta'limni shaxsga yo'naltirilgan ta'lim kontseptsiyasi va kompetentsiyaviy yondashuv asosida tashkil etishdan iborat. Ta'lim tizimidagi rivojlanish jamiyat taraqqiyotining negizini tashkil etadi. Buning uchun muntazam tarzda boshlang'ich ta'lim tizimida qo'llaniladigan innovatsion texnologiyalarni o'zlashtirish, shu orqali o'quvchilarning kompetentsiyalarni egallash jarayonlarini jadallashtirish ularni rivojlanayotgan jamiyat talablariga moslashtirish taqozo etiladi. Sifatli ta'lim olish ehtiyojining kuchayishi O'zbekiston fuqarolarining muhim hayotiy qadriyati sifatida tobora dolzarblashmoqda. Chunki sifatli ta'lim ijtimoiy-siyosiy barqarorlik va haqqoniylikning asosiy omilidir.

Bugungi kunda mustaqil taraqqiyot yo‘lidan borayotgan mamlakatimizning uzluksiz ta‘lim tizimini isloh, qilish va takomillashtirish, yangi sifat bosqichiga ko‘tarish, unga ilg‘or pedagogik va axborot texnologiyalarini joriy qilish hamda ta‘lim samaradorligini oshirish davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi. «Ta‘lim to‘grisida»gi Qonun va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»ning qabul qilinishi bilan uzluksiz ta‘lim tizimi orqali zamonaviy kadrlar tayyorlashning asosi yaratildi. Zamonaviy kompyuter texnologiyalaridan foydalanib dars o‘tish yangi ta‘lim standartiga aylanmoqda. Zamonaviy texnologiyalarni qo‘llash jarayoni mustaqil O‘zbekiston davlatining ta‘lim-tarbiya tizimida umumiy o‘rta ta‘limning dastlabki bosqichi sifatida namoyon bo‘ladi. Ma‘lumki, amaldagi boshlang‘ich ta‘lim fanli o‘qitishga asoslangan ta‘lim jarayoni bo‘lib, uning asosiy maqsadi bolalarda elementar tarzdagi o‘qish, yozish, hisoblash ko‘nikmalarini hosil qilishdan hamda obyektiv olam haqidagi tasavvurlarini rivojlantirishdan iborat.

O‘zbekiston Respublikasining “Ta‘lim to‘grisida”gi va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to‘grisida”gi Qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 12 iyundagi “Oliy ta‘lim muassasalarining rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘grisida”gi PF-4732-sonli Farmoni va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015-yil 20-avgustdagi «Oliy ta‘lim muassasalarining rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni tashkil etish chora-tadbirlari to‘grisida»gi 242-sonli Qaroriga muvofiq Oliy ta‘lim muassasalarining rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish kurslarida Bitiruv loyiha ishlari tashkil etilishi Nizom talablarida ko‘zda tutilganligi o‘qitishda modulli yondashishni dolzarbligidan dalolat beradi.

Bitiruv loyiha ishi obyekti: Nutq jarayonida tovushlarning o‘zgarishi (Kombinator va positsion o‘zgarishlar) modulini o‘qitishda interfaol metodlardan foydalanishga qaratilgan o‘quv jarayoni.

Bitiruv loyiha ishi predmeti: Nutq jarayonida tovushlarning o‘zgarishi

(Kombinator va positsion o'zgarishlar) modulini o'qitishda interfaol metodlardan foydalanish mazmuni, shakli, metod va vositalari

Olib borilgan kuzatishlar natijasida oliy ta'lim muassasalari talabalarining o'qitishda interfaol metodlardan foydalanishni tashkil etish muammosiga yetarli e'tibor qaratilmaganligini bilish mumkin.

Bitiruv loyiha ishining maqsadi: Pedagogika oliy o'quv yurtlarida talabalarining nutq jarayonida tovushlarning o'zgarishi (Kombinator va positsion o'zgarishlar) modulini o'qitishda interfaol metodlardan foydalanishining samarali yo'llari, metodik tizimini ishlab chiqish hamda didaktik vositalardan foydalanish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqishdir.

Bitiruv loyiha ishining vazifalari quyidagilar:

- Nutq jarayonida tovushlarning o'zgarishi (Kombinator va positsion o'zgarishlar) modulini o'qitishda interfaol metodlar foydalanish jarayoni pedagogika, psixologiya va o'zbek tili fani nazariyasi hamda amaliyotiga oid ilmiy-metodik adabiyotlarni tahlili;
- Nutq jarayonida tovushlarning o'zgarishi (Kombinator va positsion o'zgarishlar) modulini o'qitishda interfaol metodlar foydalanish oliy ta'lim muassasalarining ta'lim yo'nalishlarida fanlarni o'qitilishi;
- Nutq jarayonida tovushlarning o'zgarishi(Kombinator va positsion o'zgarishlar) modulini o'qitishda interfaol metodlardan foydalanish fan bo'yicha talabalar mustaqil o'quv faoliyatini tashkil etishning hozirgi holatini o'rganish va kelgusida bu sohada amalga oshiriladigan vazifalarni belgilash;
- Nutq jarayonida tovushlarning o'zgarishi (Kombinator va positsion o'zgarishlar) modulini o'qitishda interfaol metodlar foydalanish materiallarini auditoriya mashg'ulotlari va mustaqil ta'lim uchun ajratish mezonlarini ishlab chiqish;
- Nutq jarayonida tovushlarning o'zgarishi (Kombinator va positsion o'zgarishlar) modulini o'qitishda interfaol metodlar foydalanish bo'yicha fanning o'quv materiallarini auditoriya mashg'ulotlari;
- Nutq jarayonida tovushlarning o'zgarishi (Kombinator va positsion o'zgarishlar)

modulini o'qitishda interfaol metodlar foydalanish imkoniyatlarini ochib beradigan vositalarni ishlab chiqish;

- Bugungi kunga kelib, ta'lim tizimi oldiga O'zbekiston Respublikasi Hukumati tomonidan yuqori talablar qo'yilmoqda. Bu talablarni bajarish uchun boshlang'ich sinflarda yuqori darajada kasbiy salohiyatga ega bo'lgan, to'la ma'nodagi ziyoli o'qituvchilar faoliyat ko'rsatishi kerak. O'qituvchi ta'lim jarayonida o'quvchilarga zamonaviy bilimlar va milliy tarbiya asoslarini singdirishi lozim. Bu jarayonda u, birinchi navbatda, o'quvchilarni sevishi va hurmat qilishi zarur.

Bitiruv Imalakaviy ishining tuzilishi va hajmi. Mazkur loyiha ishi kirish, ikki bob, xulosa qismlaridan tuzilgan bo'lib, ishning so'ngida xulosa va tavsiyalar, adabiyotlar ro'yxati berilgan. Ishning umumiy hajmi 90 betni tashkil qiladi.

¹ Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetini tashkil etish to'g'risida.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. Toshkent-2016.13-may.

I BOB. “NUTQ JARAYONIDA TOVUSHLARNING O‘ZGARISHI” MODULINI O‘QITISHNING NAZARIY ASOSLARI.

1.1. “Nutq jarayonida tovushlarning o‘zgarishi” modulida o‘rganiladigan asosiy masalalar.

Hozirgi paytda jamiyat taraqqiyoti, axborot texnologiyalarining rivojlanishi va davlatlararo siyosiy, iqtisodiy va madaniy aloqalarning kengayishi natijasida tillararo so‘z omuxtalashish jarayoni jadallashmoqda. O‘zlikni anglashda tilning roli muhimdir. O‘zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A.Karimov bu haqda to‘xtala turib: “O‘quv jarayoniga yangi axborot va pedagogik texnologiyalarni keng joriy etish, bolalarimizni komil insonlar etib tarbiyalashda jonbozlik ko‘rsatadigan o‘qituvchi va domlalar e‘tiborimizni yanada oshirish, qisqacha aytganda, ta’lim-tarbiya tizimini sifat jihatidan butunlay yangi bosqichga ko‘tarish diqqatimiz markazida bo‘lishi darkor”¹ degan edilar.

Darhaqiqat, talabalarda ilmiylikni shakllantirish o‘qituvchi va talabaning bir vaqtdagi faoliyatini, o‘zaro didaktik hamkorligini ko‘zda tutadi. Tushunchalarni o‘zlashtirish ikki xil darajada amalga oshiriladi: Bilimlar darajasida, ko‘nikmalar darajasida. Shunga muvofiq birinchi masala o‘quvchilrni intellektual tizimi bilan qurollantirish orqali yechiladi. Ikkinchi masala esa, bo‘lajak o‘qituvchilarida tushunchalarni shakllantirishga tayyorlash hisoblanadi. Buning uchun talabalarda tushunchalarni shakllantirish nazariyasi bo‘yicha bilimlar va ularni o‘zlashtirish bo‘yicha umumlashgan usullarni egallash talab qilinadi. O‘qituvchiga qo‘yiladigan talablardan kelib chiqqan holda, oliy o‘quv yurtlarida talabalar egallashi lozim bo‘lgan nazariy bilimlar

Yuqorida sanab o‘tilgan vazifalarni bajarar ekan, ayni vaqtda, mashqlarning o‘zlari ham bevosita o‘rganish obyektiga, shuningdek, ularni

¹ O‘zbekiston Konstitutsiyasi – biz uchun demokratik taraqqiyot yo‘lida va fuqorolik jamiyatini barpo etishda mustahkam poydevordir. – Prezident I.Karimovning O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 17 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi ma’ruzası. Xalq so‘zi, 2009-yil 6- dekabr.

bajarish zaruriy ko'nikmalarni shakllantiruvchi vositaga aylanadi. Tahliliy mashqlar ustida ishlash jarayonida shunga intilish kerakki, har bir mashq talabalar uchun haqiqiy bilim manbai bo'lib qolsin. Buning uchun talabaning diqqatini mashq shartidan tafakkurini va bilish qobiliyatlarini rivojlantiradigan darajada ko'proq ma'lumotlarni olishga yo'naltirish kerak. Mashg'ulotlarning har bir bosqichida o'qituvchi masalaning mazmuni, o'quvchilarning tayyorgarlik darajasi, mashg'ulotning didaktik va tarbiyaviy hamda o'zga qator omillarni nazarda tutib, yechishning turli xil metodik uslublaridan foydalanadi. Bitiruv loyiha ishida yuqorida sanab o'tilgan vazifalarni bajarish, ayni vaqtda, mashqlarning o'zlari ham bevosita o'rganish obyektiga, shuningdek, ularni bajarish zaruriy ko'nikmalarni shakllantiruvchi vositaga aylanishi nazarda tutilgan.

Boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitish metodikasini takomillashtirishga bag'ishlangan ilmiy adabiyotlar tahlili psixologik-pedagogik tadqiqotlarda boshlang'ich sinflarda o'qitish samaradorligini oshirishning ilmiy tahlili birinchidan, axborotlarni boyitib borish orqali ta'lim mazmunini o'zgartirish, didaktik elementlarni kattalashtirib o'zlashtirish K. Qosimova, S. Matchonov, X. Gulomova, Sh. Yo'ldoshevalar tomonidan ishlab chiqilgan.

Hozirgi paytda jamiyat taraqqiyoti, axborot texnologiyalarining rivojlanishi va davlatlararo siyosiy, iqtisodiy va madaniy aloqalarning kengayishi natijasida tillararo so'z omuxtalashish jarayoni jadallashmoqda. Bunday jarayon o'zbek tili fonetikasiga ham o'z ta'sirini ko'rsatib, tilimizning o'zlashma so'zlar hisobiga boyishiga sabab bo'lmoqda.

O'zbek tilini nazariy jihatdan o'rganish darajasi haqida fikr yuritilar ekan, o'zbek tilshunosligining jahon tilshunosligiga qo'shgan hissasini taniqli tilshunoslarimizning ijobiy fikrlari orqali bilib olishimiz mumkin². Biroq yechimini kutayotgan muammolar ko'p, hal qilinmagan masalalar yetarli. Bizga

² Ne'matov H. Substansial tilshunoslik nimalar berdi? Prof. U. Sanaqulov tavalludining 70 yilligiga bag'ishlangan ilmiy-nazariy konferensiya materiallari. – Sam. 2011. B.24-28;

falsafiy kategoriya sifatida ma'lumki, jamiyatda zarur bo'lgan biror talabning qondirilishi uning bardavomligini ko'rsatuvchi boshqa ehtiyojga yo'l ochadi.

O'zbek tilining fonetik xususiyatlari, xususan nutq jrayonida nutq tovushlarining o'zgarishi xususiyatlari haqidagi ma'lumotlar F.Abdullayev, G'.Abdurahmonov, A.Rustamov, E.Fozilov, Sh. Shukurov, A. Majidov, S. Ashirboyev, H.Ne'matov, B.To'ychiboyev kabi tadqiqotchilarning ishlarida berilgan. Hozirgi o'zbek adabiy tilidagi fonetik hodisalar asosan,

A. Nurmanov, A.Abduazizov, M.Mirtojiyev, Sh.Rahmatullayev, E.Umarov, D.Nabiyeva, X.Jamolxonov, Q.Yo'ldoshev, R. Sayyfullayeva, Z.Xolmonovalar tomonidan nazariy asoslab berilgan.

Tilshunoslik tarixida tovush almashinuvi nazariyasining ishlanishida I.A.Boduen de Kurtene va N.V.Krushevskiylar alohida o'rin egallaydi. Ular tilshunoslik tarixida birinchi bo'lib tovush o'zgarishlari va almashinuvlarini bir-biridan farqlab o'rganadilar. A.A.Reformatskiyning fikricha, turkiy tillarda singarmonizm oddiy fonetik hodisa – assimilyatsiyaning bir turigina emas. Balki morfologik sathga ham dahldor bo'lgan fundamental struktur-tipologik hodisadir. O'zbek tili uchun singarmonizm o'tkinchi hodisa bo'lganligi uchun, bu tilda anglash (persektiv) va ajratish (delimitativ) funksiyani leksik urg'u bajaradi. Singarmonizm elementlari esa qadimdan amalda bo'lgan hodisaning qoldig'i sifatida namoyon bo'ladi. Demak, bu hodisa morfonologiyani o'rganish obyektidir. Masalan, jo'nalish kelishigining **-ga, -ka, -qa, -g'a, -a** variantlari mavjud. Ularning har qaysisining qo'llaniladigan shart-sharoitlari mavjud. Lekin bu hodisa grammatikaning ham tekshirish obyektidan bir muncha farq qiladi. U vaqtda yuqoridagi hodisalar tilshunoslikning qaysi bo'limida tekshirilishi kerak? Morfonologiya tilshunoslikning eng yosh sohasi bo'lib, XX asrning 30-yillarida vujudga keldi. Morfonologiyani vujudga kelishida Praga lingvistik maktabi vakillarining, xususan N.S.Trubetskoy va R.O.Yakobsonlarning xizmati kattadir.

Dastlab "Nutq jarayonida tovushlarning o'zgarishi xususiyatlari" modulining nazariy jihatlarini tahlil qilishdan avval eski o'zbek adabiy tilida

nutq tovushlarining o'zgarish xususiyatlarini ko'rib o'taylik :

Nutq tovushlarining pozitsion va sintagmatik xususiyatlaridagi o'zgarishlar: a) qadimgi turkiy tilda r,l,v,g'(g), z,d,n undoshlari so'z boshida qo'llanmagan. Eski o'zbek adabiy tili va hozirgi o'zbek adabiy tilida esa bu tovushlar ("n" dan boshqalari) so'z boshida ham ishlatiladi; b) m undoshi qadimda so'z boshidagi "b" ning varianti sifatida qo'llangan, ammo so'z o'rtasida va oxirida mustaqil fonema bo'lgan. Uning mustaqil fonema sifatida so'z boshida qo'llanishi eski o'zbek tilida bir qadar uchrab turadi, hozirgi o'zbek adabiy tilida esa uning so'z boshida qo'llanishi ancha keng tarqalgan; v) qadimgi turkiy tilda undosh tovushlar so'z boshida qatorlashib kelmagan. Bu xususiyat eski o'zbek tilida ham saqlangan, ammo hozirgi o'zbek adabiy tilida esa undoshlarning so'z yoki bo'g'in boshida qatorlashib kelishi me'yoriy holatga aylangan; bu hodisa o'zbek tiliga rus tilidan o'zlashtirilgan so'zlarga xos (brom, professor, shkaf, traktor, trolleybus, tramvay kabi); g) qadimgi turkiy tilda undosh tovushlarning so'z oxirida qatorlashib kelishi juda kam uchraydi: qirq, alp ("mergan ovchi"), art ("elka") kabi. Eski o'zbek tilida undosh tovushlarning so'z oxirida qatorlashib kelishi bir oz ko'paygan (fors-tojik va arab tillaridan so'z o'zlashtirish hisobiga): do'st (forscha o'zlashma), hamd (arabcha o'zlashma:"maqtov"), g'isht (tojikcha o'zlashma), go'sht (tojikcha o'zlashma) kabi. Hozirgi o'zbek adabiy tilida bo'g'in yoki so'z oxirida ikki undoshning qatorlashib kelishi rus tili orqali o'zlashgan so'zlar hisobiga ancha ko'paygan: boks, kodeks, kort, iks kabi; d) qadimgi turkiy va eski o'zbek tillarida so'z oxirida ikkita bir xil undoshning qavatlanishi (geminatsiya) bo'lmagan. Hozirgi o'zbek adabiy tilida esa ikkita bir xil undoshning so'z oxirida qavatlanishi uchrab turadi: gramm, klass, vatt, ball kabi ruscha-baynalmilal o'zlashmalar buning dalilidir; e) qadimgi turkiy tilda so'zning birinchi bo'g'inidan keyingi bo'g'inlari faqat undosh bilan boshlangan: *o-na*, *o-ta*, *o-g'a*, *i-ni*, *bo-la* kabi. Bu hol so'z tarkibida ikki unlining yonma-yon kela olmasligiga sabab bo'lgan. Eski o'zbek tilida arab tili o'zlashmalarining paydo

bo'lishi bu qonuniyatga chek qo'ygan: *saodat, oila, maorif, soat, foiz, mutolaa* kabi. Hozirgi o'zbek adabiy tilida esa ruscha-baynalmilal leksik o'zlashmalar hisobiga bu hodisa yanada kengaygan: *biologiya, zoologiya, geometriya, geografiya* kabi.

Singarmonizm: 1) qadimgi turkiy til va eski o'zbek tilida singarmonizm (so'z tarkibidagi o'zak va qo'shimchalarda unlilarning uyg'unlashuvi) mavjud bo'lgan. Qiyos qiling: kelduk ("kel" dagi "e" - old qator, ingichka unli Q "-duk" dagi "u" ham old qator, ingichka unli) va barduk ("bar" dagi "a" - orqa qator, yo'g'on unli "-duk" dagi "u" ham orqa qator yo'g'on unli). Bu misollardagi unlilar til garmoniyasi qonuniyati asosida uyg'unlashgan. Kelip va korup so'z shakllarining birinchisida ("kelqip" da) o'zak va qo'shimchadagi unlilar lablanmagan, ikkinchisida ("korqup" da) esa o'zak va qo'shimchadagi unlilar lablangandir. Demak, ikkinchi misolda unlilar lab garmoniyasi qonuniyati asosida uyg'unlashgan; 2) hozirgi o'zbek adabiy tilida singarmonizm o'z mavqeini ancha yo'qotgan. Qiyos qiling: *konlunuz* (eski o'zbek tilida) – *ko'nglingiz* (hozirgi o'zbek adabiy tilda), *korup* (eski o'zbek tilida) - *ko'rib* (hozirgi o'zbek adabiy tilida) kabi.

Yuqorida keltirilgan manbalardan ko'rinadiki, nutq jarayonida tovushlarning o'zgarishi xususiyatlari eski o'zbek tilida ham mavjud bo'lgan. Xo'sh, bu o'zgarishlar hozirgi o'zbek adabiy tilida ham mavjud holatlar bormi? Navbatda hozirgi o'zbek adabiy tilida ham nutqiy hodisa sifatida saqlanib qolgan bu tovush o'zgarishlari haqidagi nazariyalarni ko'rib o'tamiz.

Nutq jarayonida tovushlarning o'zgarishi jarayonini o'rganishga yetakchi tilshunos olimlar turlicha yondashgan. Jumladan, tilshunos olim *R.Sayfullayeva* ("Hozirgi o'zbek adabiy tili", T-2009) ¹ ham nutq jarayonida tovushlarning o'zgarishi hodisasini kombinator va positsion tovush o'zgarishlariga ajatgan holda, quyidagi fikrlarni aytib o'tadi: "Fonema nutqda voqelanar ekan, uning varianti nutqiy sharoit (yonma-yon kelgan tovushlar yoki qo'shimchalar ta'siriga uchrashi) tufayli turlicha namoyon bo'ladi. Natijada

tovush soʻz mohiyatida boʻlmagan xossalarga ega boʻladi. Ayrim tovush yondosh tovushga moslashadi, ayrimida oʻzgarish kuchayib, boshqa tovushga almashib ketadi. Nutqda sodir boʻladigan oʻzgarish tovushning kombinator-pozitsion oʻzgarishi deyiladi.” Shuningdek, nutq jarayonida tovushlarning oʻzgarish jarayonini tasnif qilishda olim dastlab “singarmonizm” hodisasiga tʻoʻxtalib oʻtadi va qudagicha iohlab oʻtadi: Unli va undoshning oʻzgarishi farqlanadi. Unlining nutq jarayonida oʻzgarishi *singarmonizm* deyiladi. Singarmonizm unlilarning moslashishi, uygʻunligi demakdir. U asosan turkiy tillarga xos.

Singarmonizmning ikki asosiy koʻrinishi mavjud:

- a) til garmoniyasi;
- b) lab garmoniyasi.

Til garmoniyasida unli tovush yumshoqlik yoki qattqlik, til oldilik yoki til orqalik jihatdan bir-biriga moslashadi. Singarmonizmning til garmoniyasi qonuniyatiga koʻra soʻzning boshida til oldi unlisi kelsa, soʻz oʻrtasi va oxirida ham til oldi unlisi keladi. Boshqacha aytganda, soʻzning boshida undoshning artikulyasion oʻrniga bogʻliq ravishda unli tovushda yuz bergan oʻzgarish soʻzning keyingi boʻgʻinlaridagi unlida ham yuz beradi. ¹ Olima nutq jarayonida tovushlarning oʻzgarishi h hodisasini tasnif qilishda kombinativ va pozitiv omillarga tayanib amalga oshirgan.

Tilshunos olim *X.Jamolxonov* (“ Hozirgi oʻzbek adabiy tili”, T-2004)² ushbu mavzu yuzasidan oʻz fikrlarini asoslab fonemaning nutq oqimida turli ottenkalarda namoyon boʻlishi, bunday ottenkalarining yuzaga kelishida kombinator, pozitsion yoki aralash (kombinator- pozitsion) va boshqa omillarning ishtiroki borligi, fonetik hodisalar ham aslida ana shu omillar mahsuli sifatida sodir boʻlishi haqida toʻxtalib oʻtadi. Yuqoridagi keltirilgan tasnifdan farqli ravishda nutq jarayonida tovushlarning oʻzgarishini tasniflab *sandxi* (*ishlar edi>ishlardi, borgan emish>borganmish*), *aferezis* (: *ne uchun>nechun, mulla aka>mullaka*),

gaplogiya (*mineralogiya*<*mineralologiya*, *morfonologiya*<*morfofonologiya*), *geminatsiya* (*yashamagur*>*yashshamagur*, *uchalasi*> *bora ber*>*boraver* (b>v), *kabob*>*kavob* (b>v) ² kabi tovush o'zgarishlarini ham keltirib o'tgan. Bu hodisalarda pozitsion omil (intervokal holat) bilan birga kombinator omil (unlilarning undoshga ta'siri) ham ishtirok etgan.

Bu ma'lumotlar bilan tanishish jarayonida tilshunos olim

Z. Xolmanovanning "*Tilshunoslikka kirish*" kursidagi nutq jarayonidagi fonetik o'garishlarning tasnifini ham keltirib o'tamiz. Olima nutq jarayonida tovushlarning o'zgarishini tasnif qilgan ekan, so'zlardagi etimologik va geneologik, ya'ni kelib chiqish jihatidan o'xshashlik va farqli tomonlariga qarab bu o'zgarishlarni tasnif qilishga yondashgan ko'ramiz: "Til taraqqiyoti va rivoji ma'lum qonuniyatlar asosida yuzaga keladi. Til murakkab va ko'p qirrali ijtimoiy hodisa bo'lib, undagi birliklar barcha jihatdan uzviy bog'langan. Ushbu birliklarga aloqador qonuniyatlar ham o'zaro bog'liq hisoblanadi. Tildagi tarixiy fonetik o'zgarishlar ma'lum tarixiy fonetik qonuniyatlar asosida ro'y beradi. Fonetik – fonologik o'zgarishlar tilning ichki qonuniyatlari bilan bog'liq hodisadir. Tildagi tarixiy- fonetik o'zgarishlarni o'rganuvchi qiyosiy-tarixiy tilshunoslik sohasi qiyosiy-tarixiy fonetikadir. Qardosh tillardagi (slavyan, german, roman tillari, turkiy tillar) tarixiy fonetik o'zgarishlar natijasida so'zlardagi etimologik va geneologik, ya'ni kelib chiqish jihatidan o'xshashlik va farqli tomonlarini qiyosiy –fonetika aniqlab beradi. Qardosh va qardosh bo'lmagan tillardagi tarixiy-fonetik o'zgarishlarni tahlil qilish natijasida tipologik, qiyosiy –tipologik fonetika, fonologiya sohalari shakllandi. Til taraqqiyotidagi fonetik o'zgarishlarni tahlil etuvchi fonetik-fonologik qonuniyatlar quyidagilar:

1. Umumiy fonetik qonuniyatlar barcha tillarga xos umumiy holdagi tartib va qoidalarni tilning boshqa qonuniyatlari bilan bog'liqlikda aks ettiradi. Masalan, singarmonizm (tovushlarning uyg'unlashuvi) turkiy tillarga xos umumiy fonetik qonuniyatdir.
2. Xususiy fonetik qonuniyatlar muayyan til uchun xos bo'lgan qonuniyatlarni

ifodalaydi. Masalan, turkiy tillarga mansub o'zbek tilining keyingi taraqqiyotidagi ichki o'zgarishlar hamda yondosh tillar ta'sirida yuzaga kelgan hodisalar shu tilning o'ziga xos rivojlanish omillari bilan bog'liqdir. Fonetik qonuniyatlar davriy nuqtayi nazardan ikkiga bo'linadi.

1) tarixiy fonetik qonuniyatlar tillar yoki muayyan bir tilning tarixiy taraqqiyotida yuzaga kelgan tarixiy-fonologik o'zgarishlarni o'z ichiga oladi. Til tarixining tarixiy tovush o'zgarishlarini o'rganuvchi bo'limi tarixiy fonetika va fonologiya deb yuritiladi.

2) davriy fonetik qonuniyatlar muayyan til doirasida hozirgi davrda sodir bo'layotgan fonetik o'zgarishlarni izohlaydi. Tarixiy-fonetik va fonologik o'zgarishlar turli murakkab jarayonlarni o'z ichiga oladi. Fonetik va fonologik o'zgarishlar natijasida tildagi fonemalar soni kamayishi yoki ko'payishi mumkin, bunda ikki hodisa ro'y beradi.

1. Ikki fonemaning yaxlit bir fonema sifatida birlashishi konvergensiya deyiladi. O'zbek tili tarixida ma'lum bo'lgan til oldi va til orqa, qisqa va cho'ziq fonemalar keyinchalik birlashib, o'rta cho'ziqlikka ega bo'lgan 6 ta unli fonemani hosil qilgan.

2. Bir fonemaning ikki mustaqil fonemaga ajralishi divergensiya deyiladi. Masalan, qadimgi turkiy tilda bitta a fonemasi keyinchalik ikki fonemaga ajralgan: a va o. Fonetik qonuniyatlarga tovushlarning kombinator va pozitsion o'zgarishlari ham kiradi. Umuman, fonetik qonuniyatlarni boshqa yondosh hodisalar ta'sirida o'rganish tilshunoslik fani uchun ilmiy qiymatga ega.”³

Biz yuqorida nutq jarayonda tovushlarning o'zgarishi xususiyatlarini nazariy jihatdan asoslashga harakat qildik. Olimlarning bergan ma'lumotlarida ba'zi joylarda, bir xilliklar uchraydi, ammo har bir olim nutq jarayonidagi o'zgarishlarni tasnif qilishda o'z nuqtayi nazaridan yondashgan dasak, mubolag'a qilmaymiz. Yuqoridagi fikrlardan ma'lum bo'ladiki, talabalarga nutq jarayonida

tovushlarning o'zgarishi mavzusini o'rgatish jarayoni ancha bahsli vaziyatlarni keltirib chiqaradi. Shuningdek, bu jarayonda talabalarning talaffuz va imlo bilan bog'liq kamchiliklarini ham tuzatish imkoniyati paydo bo'ladi.

So'zlarni talaffuz qilish jarayonida urg'uni to'g'ri qo'yish va so'zlarni to'g'ri talaffuz qilish lozim. Bu holat ayniqsa chet tillardan kirgan so'zlarda aniq ko'zga tashlanadi. Masalan: traktor, rektor, direktor, so'zlarining talaffuzida "o" unlisining "e" unlisi talaffuz qilinadi. Tilshunos olim Q.Yoldoshev chet tillardan kirgan so'zlarni o'zbekchaga moslashtirib talaffuz qilinishi kerak deb hisoblaydi. Bizning fikrimizcha, bunday so'zlarni mahalliyashtirib talaffuz qilishdan ko'ra to'g'ri talaffuz qilish lozim. Shuningek, akademik, fizik so'zlarining talaffuzida urg'uni to'g'ri qo'ya bilish lozim.

1.R. Sayfullayeva. Hozirgi o'zbek adabiy tili", T-2009
2.X.Jamolxonov. Hozirgi o'zbek adabiy tili", T-2004s
3.Xolmanova Z. Tilshunoslikka kirish www.ziyouz.com kutubxonasi

1.2. “ Nutq jarayonida tovushlarning o‘zgarishi” modulini o‘qitishga doir zamonaviy yondashuvlar va interfaol metodlar.

Har tomonlama yetuk insonni tarbiyalash bugungi jamiyatimiz oldida turgan dolzarb masalalardan biri bo‘lib qolmoqda. Hozirgi maktab o‘rindiqlarida o‘tirgan yosh avlod ertaga bizning qo‘limizdan ishimizni oladigan, hayotimizni davom ettirib, o‘zidan keyingi avlodga etkazuvchi vorislarimiz, O‘zbekiston buyukkelajaginingegalaridir.

Talabalarning “Ona tili va adabiyot” fanini o‘zlashtirishlari uchun o‘qitishning ilg‘or va interfaol usullaridan foydalanish ahamiyatga egadir. Fanni o‘zlashtirishda darslik, o‘quv va uslubiy qo‘llanmalar, ma’ruza matnlari, tarqatma materiallar, kompyuter dasturlari, elektron materiallar foydalaniladi. Ma’ruza va amaliy darslarda mos ravishdagi ilg‘or pedagogik texnologiyalar qo‘llaniladi. Hozirgi kunda ta’lim jarayonida interfaol usullar, innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalarni qo‘llashga bo‘lgan qiziqish kundan-kunga kuchayib bormoqda. Bunday usul o‘quvchilarni tayyor bilimlarni o‘zlari qidirib topishlariga, mustaqil o‘rganib tahlil qilishlariga, xatto xulosalarni ham o‘zlari keltirib chiqazishlariga o‘rgatadi. O‘qituvchi bu jarayonda shaxsni rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi. Shu bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yo‘naltiruvchilik funksiyasini bajaradi. Ta’lim jarayonida talaba asosiy figuraga aylanadi.

Ta’lim-tarbiya jarayonida dars samaradorligini oshirish, o‘quvchilar bilimini mustahkamlash, o‘quvchularning darsga qiziqishlarini oshirishda innovatsion texnologiyalar va interaktiv metodlarni qo‘llash tobora keng tus olmoqda. Interfaol metodlar boshqa metodlar singari o‘quv mashg‘ulotning tarkibiy qismi sifatida o‘qituvchi va talaba hamkorligini tashkil etishga yordam beradi. Boshqacha aytganda, texnologik jarayonning to‘liq amalga oshirilishi uchun xizmat qiladi. Interfaol metodlarning asosiy xususiyati talabalarni faollashtirish va fikrlashni rivojlantirishga sharoit yaratishdir. Ammo ularni mutlaqlashtirib qoyish ham o‘rinli emas, chunki interfaol metodlar yangi

bilimlarni berishga xizmat qilmaydi. Ana shu sababli ular bir necha asrlardan buyon oliy ta'limda qo'llanib kelinayotgan suhbat, hikoya, tushintrish, ko'rsatish, namoyish etish, didaktik o'yin kabi metodlarni chetga surib qoya olmaydi. Talabalarni bilimlar bilan qurollantirmasdan turib, fikrlashga va faollikka undab bo'lmaydi. Chunki, fikr yuritish uchun narsa, hodisa haqida yetarlicha bilimga ega bo'lish kerak. Bunday metodlarni qo'llash ta'lim samaradorligi va ta'sirchanligini oshiradi, o'quvchilarning o'qish motivlarini o'stiradi. Bunda an'anaviy ta'limdagi kabi bir xillik asosida emas, balki yangiliklar asosida ta'lim jarayonining ta'sirchanligini oshirishga qaratilgan ish shakllaridan foydalaniladi. Mashg'ulotlar jarayonida pedagogik texnologiyalarga asoslanish va innovatsiyaga intilish, o'quvchilarni faollashtirishga qaratilgan turli interfaol metodlardan foydalanish ta'lim maqsadini muvaffaqiyatli amalga oshirishga yordam beradi. Ta'lim jarayonini innovatsion metodlardan foydalanib tashkil etish uchun, avvalo, darsning rejasi va loyihasi aniq ishlab chiqilishi zarur. Dars loyihasini tuzishda o'qituvchi o'zining ish shakllari va o'quvchilarning ko'nikmani egallash jarayonidagi ishlari doirasini aniq belgilab olishi lozim. Shuningdek, qanday o'qitish metodlaridan foydalanishi ham muhim ahamiyatga ega. O'qitish metodi – ko'zlangan maqsad, yoki rivojlantirilgan aniq bir maqsadga erishish yo'lidagi amallar ketma-ketligidir. “Interaktiv”- inglizcha so'z bo'lib, “o'zaro harakat qilmoq” degan ma'noni bildiradi.

—Interfaol ta'lim» –bu:

— doimiy muloqatga asoslangan metodlar tizimi;

— o'zaro harakat, ya'ni hamkorlik asosida o'qitish demakdir.

Buyuk faylasuf Konfutsiy 2500 yil oldin shunday degan edi :
“Eshitganimni yoddan chiqaraman, ko'rganimni eslab qolaman, mustaqil bajarsam tushunib yetaman”. Biz darslarda o'quvchilar bilan birgalikda, juftlikda, guruhlarda ishlashda juda ko'plab interfaol metod va mashqlardan —
“Guruhlarda ishlash”, “Taqdimot», yangi mavzuni bayon qilishda “Kichik

maʼruza”, “Rolli oʻyin”, “Aqliy hujum”, “Charxpalak” metodlaridan va “Hamma, hammaga oʻrgatadi”, “Mevalar salati,” “Impuls” “Hayot yoʻli”, “Vaziyatlar” “Aql charxi” mashqlaridan foydalanishimiz mumkin. Bunda oʻquvchilar taʼlim olish jarayonida guruhlarda, hamjihatlikda ishlaydilar, mustaqil bajaradilar va eslab qoladilar. Bunda birinchi navbatda oʻquvchilarda —doʻstona kelishuv» va —hayotiy koʻnikmalar shakllantiriladi.

“Doʻstona kelishuv” — intizom, faollik, oʻzaro hurmat, oʻng qoʻl qoidasi, ijodkorlik, ijodiy jarima, reglament (aniq, qisqa, loʻnda fikrni bayon qilish)

“Hayotiy koʻnikmalar” —muloqat qila olish, ijodiy fikrlash, stress holatdan chiqib ketish, his-tuygʻ, ularni jilovlay olish, muammolarni hal qila olish, oʻz-oʻzini tahlil qila olish, qaror qabul qilish, tanqidiy fikrlash.

Interfaol dars jarayonlari shunday tashkil etilishi kerakki, bunda barcha talabalalar faollashishi zarur, yaʼni dars oʻtish jarayonida oʻquv materiallarining maʼlum bir qismi talabalalar tomonidan mustaqil oʻrganiladi, soʻngra sinfda har tomonlama muhokama etiladi. Oʻqituvchi oʻquv jarayoni tashkilotchisi, rahbari, nazoratchisi hamdir. Oʻquvchining sinfda oʻzini erkin his qilishi va oʻquv faoliyati uni emotsional jihatdan qoniqtririshi lozim, ana shundagina u oʻzining fikrlarini erkin bayon qila oladi. Interfaol usullar xilma-hil boʻlib, qaysi metodni tanlash oʻqituvchining oʻtayotgan mavzusi, darsning maqsadi va vazifalariga bogʻliq. Interfaol mashgʻulot - oʻqituvchi va talabalalar oʻzaro faol ishtirok etadigan mashgʻulot, hamkorlikda kechadigan jarayon.

Innovatsion jarayonlarda interfaol metodlarning qoʻllanishi darslarda beixtiyor psixologik oʻyin yoki musobaqaga aylantirib, yuqorida tilda olingan boʻsh talabalalar ni ham bir oz boʻlsa-da, oʻz fikrlarini keng ommaga izhor etishga, umuman sinfda kechayotgan bahs-munozaralarga befarq boʻlmasdan, faol ishtirok etishga undaydi. Talabalalar ni faollashtirish uchun dars jarayonida qoʻllaniladigan usullarni toʻgʻri tanlash va savollarni aniq tuzish katta samara beradi. Buning uchun darsga, mavzuga qoʻyilgan maqsad aniq belgilanib, shu maqsadga erishish yoʻli, usuli puxta koʻrib chiqilishi lozim. Demak, oʻqituvchi

har bir foydalanadigan interfaol usulni o'quvchiga nima berishini oldindan ko'ra olishi va darsni to'g'ri tashkil qilishi kerak. Demak, siz qo'llanmoqchi bo'lgan interfaol usulini ko'rib bo'lgach, o'zingizga kerakli rasm, tarqatma material ko'rgazmalardan keragini qirqib olib konvertga solib qo'yishingiz, mavzularni o'rgatishda ishlatishingiz mumkin.

Ta'lim sohasidagi bosh maqsad - ta'lim va tarbiyaning demokratik, insonparvarlik printsiplarini qaror toptirish, xalqimizning tarixiy an'analari va urf-odatlarini, shuningdek, umumbashariy qadriyatlar asosida ta'lim – tarbiya jarayoni mazmunini tubdan o'zgartirish, shu maqsadda pedagogik jamoalarning tashabbuskorligiga keng imkoniyat ochib berishdan iboratdir. Interfaol

metodlar – o'quv jarayonini muayyan shaklda loyihalashtirishdir. Yangi pedagogik texnologiya esa an'anaviy dars qurilishini zamonaviy interfaol usul, noan'anaviy shaklda o'ziga xos qayta loyihalashtirishdir. Bu loyiha shuni taqozo etmog'i lozimki, avvallari o'quvchi muallimdan bilimni tayyor holda olgan bo'lsa endilikda mashg'ulotda qo'yilgan turli muammoli topshiriqlarni bajarish asnosida mustaqil fikr yuritish, mulohaza qilish, mantiqiy xulosa chiqarish orqali boshqacha qilib aytganda muayyan darajada mehnat qilib bilim oladi. Shuningdek ko'nikma va malakalar ham mantiqiy fikrlashni talab qilgan mashqlar ta'limiy o'yinlar qiziqarli ijodiy ishlar vositasida hosil bo'ladi.

Interfaol metodlarni aniqroq qilib aytganimizda yangi pedagogik texnologiyani ta'limda tadbqiq etishga bir tomondan, ko'pchilik o'qituvchilar jiddiy e'tibor bergan holda muayyan darajada izlanib bormoqdalar, ikkinchi tomondan esa aksariyat muallimlarning mashg'ulotlarda turli noan'anaviy usullarni duch kelgan holda qo'llashlari natijasida mashg'ulotlardagi qat'iy izchillik, tizimlilikka putur yetib, o'quvchilar egallashi shart bo'lgan bilim to'la berilmayapti.

O'qituvchi yangi pedagogik texnologiyani ta'lim jarayonida joriy etishda quyidagi jihatlarga e'tibor berib borsa maqsadga muvofiq bo'ladi.

a) shaxs – o'quvchidagi mavjud imkoniyatlar – diqqati, barqarorlik, aqliy


mushohada qila olish, ijodiy izlana olishligi, faollik darajasi, nutqiy malakasini hisobga olish;

- b) O'quv jarayonida muayyan algoritmnini tuzib olish;
- c) O'quv jarayonini mohirlik bilan boshqarish
- d) Loyihani amalga oshirish jarayonida darsning ta'lim-tarbiyaviy maqsadlarining qay darajada amalga oshayotganini nazorat qilib boorish;
- e) Darsda til imkoniyatlari va turli qo'shimcha vositalar – texnika turlari, musiqa, ertak, topishmoq, maqol, hse'r, rebus, unumli foydalanib boorish.

Turli uslubiy maqola va qo'llanmalarda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llashda o'quvchilarning mustaqil fikr yuritishlari uchun ularga imkon yaratib berish, o'qituvchi taqdim etgan fikrni muhokama qilish, mantiqiy mulohazalar qilib, tegishli xulosa hukm chiqarish, o'z fikrlarini mustaqil himoya qilish, faol munozaraga kirishishni ta'minlash kabi fikrlar bayon qilinib kelinmoqda. Shuningdek, ta'lim jarayonida modulli ta'lim texnologiyasi hamkorlikda o'qitish texnologiyasi muammoli ta'lim ta'limiy o'yinlar o'tkazish guruh-guruh qilib o'qitish texnologiyalari manzarali chizib berilmoqda.

Lekin yuqoridagi texnologiyalarning barchasini ham boshlang'ich ta'limda tadbiq etib bo'lmaydi. Chunki kichik yoshdagi maktab o'quvchisi hali ta'lim jarayonida ishtirok etish qobiliyatiga ega emas. Pedagogik innovatsion texnologiyalar shuni talab qiladiki dars jarayonida ta'lim-tarbiyada o'quvchi asosiy harakatlantiruvchi kuch ta'lim jarayoni sub'yekti bo'lishi kerak. O'qituvchi esa o'qitishdan o'qishni o'rganishga, bilim berishdan bilimlarni o'quvchilar mustaqil egallashlariga ko'maklashishi zarur. U o'quvchini ehtiyoj tug'dirishdan muhit yaratishga va undan mas'uliyatni sezishga yo'llashi kerak. Ma'lumki har bir dars uchun ta'limiy tarbiyaviy rivojlantiruvchi maqsadlar belgilab qo'yiladi. Mashg'ulotni tashkil qilish shakli unda qatnashuvchilarning psixologik yosh xususiyatlariga o'quv materiali hajmi va mazmuniga ta'lim

usullari va bolalarning imkoniyatiga qarab loyihalashtiriladi. Hozirgi pedagogika fanida o'quv jarayonining asosiy komponentlari quyidagicha belgilanadi.



Yuqoridagi sxema mohiyati shuki, ta'limda, aniqroq qilib aytganda yangi pedagogik texnologiyada ichki motivatsiya o'quvchilar diqqatini tortish, ichki tuyg'uni hosil qilish, istak, zarurat, mas'uliyat va ehtiyojni shakllantirishdan kelib chiqqan holda darsni boshqarish lozim. Keyingi yillarda bu bosqichlarning qat'iy izchillikda bo'lishi, har bir bosqichning o'ziga xos qat'iy qolipga tushib qolishi ta'lim samaradorligiga putur yetkaza bordi mashg'ulotlarning zerikarli, o'quvchilarning loqaydligiga javob bo'ldi. "Natijada sinf jamoasidagi interfaollikning yo'qolishi o'quvchilarning mantiqiy fikrlash tarzidagi ojizlik holatlari yuzaga keldi." O'quvchilar unli-undosh, jarangli-jarangsiz tovushlar farqini Grammatik tushuncha mohiyatini so'z turkumlari bilan gap bo'laklari tafovutini bilmaydigan holatga kelishgan. Intrfaol metodlarni amalda qo'llashda shunga e'tibor berish lozimki, o'quvchilarni mantiqiy obrazli fikrlashga o'rgatish ularni muntazam ravishda faollashtirib boorish lozim. Yana shunga e'tibor berish joizki, yangi texnologiyani takomillashtirishda dialektikaning o'ziga xos qonuniyatlari hamda o'quvchilarning psixologik xususiyatlariga asoslanish talab etiladi. O'qituvchi mashg'ulotni loyihalashda pedagogik texnologiya tamoyillariga jiddiy rioya qilishi lozim. Jumladan qaytuvchan aloqa – o'quvchiga axborot berib, undan ham axborot olishqaytuvchan aloqa jarayoni va nazoratning birligi har bir o'quvchi uchun maqbul bo'lgan o'quv materialini tanlash tamoyillari o'qitish samaradorligini belgilashi. Shuningdek, o'qitishda o'quvchi har bir mashg'ulotda huddi imtihondagidek harakat qilishi o'z nazorat faoliyati natijasini vaqtida

bilishi, shu bilan birga o'quvchining yutug'iga o'qituvchining munosabati yoki o'quvchining kamchilik va xatolariga o'qituvchining munosabati masalalari ham zamonaviy pedagogik texnologiya qoidalari sifatida o'qituvchi diqqat markazida bo'lishi shart. An'anaviy dars strukturasi tarkibida tashkiliy qism uy vazifasini tekshirish, o'tilgan mavzu yuzsidan suhbat. Yangi mavzu ustida ishlash, yangi bilimlarni mustahkamlash, uyga vazifa berish va darsni yakunlash bosqichlari mavjud edi. Hozir ham ko'pchilik o'qituvchilar ana shu bosqichlariga amal qilib, ta'lim jarayonini tashkil qilib bormoqdalar. Biroq, kuzatishlar shuni ko'rsatmoqdaki, mana shu doimiy bir xillik o'quvchilarda moslashuv holatini yaratibbu bosqichlar ularning faoliyatini qo'zg'otmay qo'ydi. Natijani yaxshilash uchun esa interfaol metoddan foydalanish samaralidir.

Zamonaviy pedagogik texnologiyalar ta'lim-tarbiya jarayonining bir tizimga solingan ilmiy-nazariy va metodik asoslangan yangi shakl, usul va vositalarining majmuidir. Bunda yangi mazmun, shakl, usul va vosita uyg'unligida maqsad, vazifa, faoliyat va pedagogik natija yaxlitligi ta'minlanadi hamda o'quv maqsadlariga erishishni kafolatlaydigan o'quv jarayoni loyihalashtiriladi va amalga oshiriladi. Texnologik yondashuv, eng avvalo, tasvirlash emas, balki loyihalashtirilgan natijalarni amalga oshirish imkonini beruvchi amaliy, ko'rsatmali tuzilmada o'z ifodasini topadi.

Pedagogik jarayonda atamalarni to'g'ri qo'llash uchun ularning ma'nolarini aniq bilib olish lozim deb hisoblaymiz. Masalan pedagogi faoliyatimiz jarayonida metod, usul, metodika, pedagogi texnologiya, interfaol metodlar kabi bir qancha terminlardan foydalanamiz.

Metod -so'zi yunoncha tadqiqot, maqsadga erishish yo'li, usuli deganidir. Bu so'zning kelib chiqishi ining ilmiy kategoriya sifatidagi talqinida ham aks etgan. Metod - eng umumiy ma'noda maqsadga erishish usuli, ma'lum tarzda tartibga solingan faoliyat. Nutq jarayonida tovushlarning o'zgarishi modulini o'qitishda samarali metodlardan foydalanish lozim. Har bir metodni qo'llash

jarayonida uning samaradorligini inobatga olish lozim.

Ta'lim metodlari deyilganda, nutq jarayonida tovushlarning o'zgarishi modulini egallashga qaratilgan turli didaktik vazifalarni hal etishga doir o'qituvchining o'rgatuvchi ishi va o'quvchilar o'quv – bilish faoliyatini tashkil etish usullari yig'indisi tushiniladi.

Ta'lim usuli – nutq jarayonida tovushlarning o'zgarishi modulini o'qitish metodining tarkibiy qismi yoki alohida tomoni. Usul va metod butun va qism sifatida bir-biriga bog'lanadi. Usullar yordamida faqat o'quv vazifasini bir qismi hal qilinadi.

Metodika – qa'tiy ketma ketlikka (algoriymik xarakterga), ilgari o'rnatilgan reja (qoida), tizimga aniq rioya qilish, biror bir ishni maqsadga muvofiq amalga oshirish metodlari, yo'llari majmui. “Metodika” tushunchasi turli fanlarni o'qish bilan bog'liqlikda ham qo'llanib, ma'lum sohani o'qitish jarayoni, mazmuni, qonuniyatlari, tamoillari, shakl, metod va vositalar yig'indisida o'z aksini topadi.

Pedagogik texnologiya – bu muayyan loyiha asosida tashkil etiladigan, aniq maqsadga yo'naltirilgan hamda ushbu maqsadning natijalarini kafolatlovchi pedagogik faoliyat jarayoning mazmunidir.

Oqitish texnologiyasi – o'quv mashg'ulotlarining har bir bosqichi alohida-alohida loyihalash, kutiladigan natijalarni oldindan aniqlashtrish, har bosqichda qo'llaniladigan shakl, metod va vositalarni oqilona tanlab olish, o'qituvchi va o'quvchining harakatlarini oydinlashtrishga qaratilgan algoritmik ketma-ketlik.

Tarbiya texnologiyasi – nutq jarayonida tovushlarning o'zgarishi modulini o'qitishda tarbiya natijalariga asoslanib, tarbiyaning maqsad va vazifalarini oydinlashtrish, tarbiya jarayoninng har bir bosqichini alohida – alohida loyihalash, tarbiyaning shakl, metod va vositalarini aniq belgilab olishga

qaratilgan tizimli jarayon.

Interfaol metod – o‘quv jarayonining tarkibiy qismi bo‘lib, bir vaqtida ham o‘qituvchi, ham o‘quvchini faollashtirishga yo‘naltilgan o‘qitish usullari majmui. Bunda nutq jarayonida tovushlarning o‘zgarishi modulini o‘qitishda interfaol metodlarni qo‘llash va bundan samarali natijalarni olish kerak. Ushbu modulni o‘rganishda ”Venn diagrammasi” , “FSMU” kabilarni aytib o‘tish mumkin.

Grafik organayzerlar – o‘quv jarayonida nutq jarayonida tovushlarning o‘zgarishi modulini o‘rganishda qoyilgan maqsadga erishishda yordam beruvchi chizma, jadval, grafiklar dan foydalanish ham yuqori natijalarni kafolatlaydi. Agar grafik organayzerlarni o‘qituvchi tayyor (to‘ldirilgan) holda qo‘llasa, vosita vazifasini, o‘quvchilarning mashg‘ulot mavzusiga doir bilimlarni mustahkamlash va fikrlashini rivojlantirish maqsadida ishlatilsa, metod fazifasini bajaradi. Masalan, shunday grafik organayzerlardan “Qanday”, “Nima uchun”, “BBB” kabi organayzerlarini misol keltirish mumkin.

Pedagogik texnologiyalar sohasidagi yangi izlanishlar bilan tanishish, o‘qitishning faol usullarini bilish va qo‘llay olish har bir pedagog oldiga qo‘yayotgan zamon talablarining asosiylaridandir. Keyingi manbalarda e‘lon qilingan axborotlarni tahlil etgan holda quyidagi ta‘lim jarayonida qo‘llanilayotgan interfaol usullarni keltirib o‘tamiz.

II BOB. “ NUTQ JARAYONIDA TOVUSHLARNING O‘ZGARISHI” MODULINI INTERFAOL METODLAR ASOSIDA O‘RGANISHNING O‘QUV-USLUBIY TA‘MINOTI

2.1. O‘quv fani dasturining qisqacha tavsifi.

“Ona tili va adabiyoti” fanining 2016/2017 o‘quv yili uchun mo‘ljallangan

SILLABUSI

Fanning qisqacha tavsifi					
OTMning nomi va joylashgan manzili:	Termiz davlat universiteti			F.Xo‘jayev ko‘chasi 43-u	
Kafedra:	Boshlang‘ich ta’lim metodikasi			“Pedagogika” fakulteti ta	
Ta’lim sohasi va yo‘nalishi:	5111700 – “Boshlang‘‘ich ta’lim va sport tarbiyaviy ish” ta’lim sohasi		Bakalavriat bosqichining Boshlang‘‘ich ta’lim va sp talabalari uchun mo‘ljallangan		
Fanni (kursni) olib boradigan o‘qituvchi to‘g‘risida ma’lumot:	O‘qituvchi Amirqulova Zebo Mustafoqulovna		e-mail:		zeboxon@mail.ru
Dars mashg‘ulotini o‘tkazishning vaqti va joyi:	O‘quv-uslubiy boshqarma tomonidan ishlab chiqilgan jadval asosida institutning o‘quv binolarida		Kursning boshlanish va davom etish muddati:		Bakalavriat ta’lim yo‘na birinchi semestrda
Individual grafik asosida professor-o‘qituvchining talabalar bilan ishlash vaqti:	Haftaning dushanba, seshanba va shanba kunlari 11.30 dan 16.00 gacha				
Fanga ajratilgan o‘quv soatlarining o‘quv turlari bo‘yicha taqsimoti	Auditoriya soatlari			Mustaqil ta’lim:	72
	Ma’ruza:	52	Amaliyot		
Fanning boshqa fanlar bilan uzviy aloqasi (prerekvizitlari):	“O‘zbek tili tarixi”, “Hozirgi o‘zbek adabiy tili”, “Tilshunoslik”, “Folklorshunoslik”,”Bolalar adabiyoti”				
Fanning mazmuni					

Fanning dolzarbligi va qisqacha mazmuni:	<u>Fanni o‘qitishdan maqsad</u> – Fanning asosiy maqsadi - bo‘lajak o‘qituvchilarning xususiyatlari, talaffuz me‘yorlari, lug‘at (leksik) boyligi, imlo qoidalari va grammatik bilim berish, bolalar adabiyoti va bolalar folklori, o‘zbek va jahon bolalar adabiyoti talabalarining og‘zaki va yozma nutqini o‘stirish va savodxonligini oshirish, takomillash malaka hosil qilishdir. <u>Fanning vazifasi</u> - ona tilining barcha bo‘limlari yuzasidan talabalarga nazariy va amaliy qo‘llashga o‘rgatish, ona tilining davlat tili maqomini olishi hamda “Ta’lim to‘g‘ri” qonuni bilan bog‘liq bo‘lgan o‘zgartishlarni yetkazish, o‘zbek va jahon bolalar adabiyoti tahlil qilish, jahon va o‘zbek bolalar adabiyoti namoyandalarining ijodini o‘rganish, o‘zbek tilining namunalari o‘rganish, maktabgacha, maktab va katta maktab yoshidagi bolalar xususiyatlarini tahlil qilish. “Ona tili adabiyoti” o‘quv fanini o‘zlashtirish jarayoni masalalar doirasida bakalavr: - ona tili va uning jamiyatda tutgan o‘rni; - ona tilining o‘rganilish darajasi; - tilshunoslik fanining boshqa fanlar tizimidagi o‘rni; - tilning paydo bo‘lishi haqidagi nazariyalar; - tillarning taraqqiyoti; - dunyo tillarining geneologik va morfologik tasnifi; - tilshunoslikning sohalari: etimologiya, pragmatika, lingvopoetika, semasiologiya, - fonetika va fonologiya; - ona tilining unli va undosh tovushlar tizimi va ularning tasniflanishi; - nutqning fonetik bo‘linishi; - urg‘u va uning turlari; - fonetik hodisalar;
--	--

Talabalar uchun talablar	Institutning odob-ahloq kodeksi talablarigi qat'iy rioya qilish, shuningdek: - professor-o'qituvchi auditoriga kirganida o'tirgan joydan turib "Assalomu alaykum" deb salomlash; - uyali aloqa vositalarini o'chirib qo'yish; - professor-o'qituvchidan so'ng dars mashg'ulotiga kech kelgan talaba auditoriyaga kiritilmas; - professor-o'qituvchi va guruhdoshlarga qo'pollik qilmaslik, so'z talashmaslik, hurmat bo'yicha munosabatlar o'rnatish; - institut ichki tartib - intizom qoidalariga rioya qilish; - kiyinish talablari (madaniyati) ga rioya qilish; - mashg'ulotlar vaqtida o'qituvchining ruxsatisiz auditoriyadan chiqmaslik (umuman dars davomida chiqish sababsiz chiqishga ruxsat berilmaydi); - uy vazifasi va mustaqil ish topshiriqlarini o'z vaqtida va sifatli bajarish; - ko'chirmachilik (plagiat) qilmaslik, qat'iy man etiladi; - darslarga qatnashish majburiy, sababsiz 2 (ikki) va undan ortiq dars qoldirgan talaba fakultet dekani ruxsati bilan kiritiladi; - sababli dars qoldirilgan taqdirda, professor-o'qituvchiga ma'lumotnoma (spravka) taqdim etiladi; - har qanday holatlarda ham qoldirilgan darslar qayta o'zlashtirilishi shart; - ma'ruza va amaliyot darslariga oldindan tayyorlanib kelish va faol ishtirok etish; - qo'shimcha ravishda bajarilgan taqdimot, mustaqil ish, esse, referat, kreativ fikrlash va boshqalar ilmiy-amaliy anjumanlarda ma'ruzalar bilan ishtirok etganligi uchun +2 bonus ballar beriladi; - talabaga o'z vaqtida bajarilmagan mustaqil ish, uy vazifasi, tartib – intizomi bo'yicha -2 ball beriladi; - talaba reyting ballidan norozi bo'lsa fan bo'yicha nazorat turlari e'lon qilingan vaqtda fakultet dekaniga ariza bilan murojaat qiladi va apellyatsiya komissiyasi shu kunning ichki qismini ko'rib chiqib xulosa chiqaradi.
Elektron pochta orqali munosabatlar tartibi	Professor-o'qituvchi va talaba o'rtasidagi aloqa elektron pochta orqali ham amalga oshiriladi. Baholash baho masalasi muhokama qilinmaydi, lekin oraliq, joriy va yakuniy baholash faqatgina dars xonalarda va dars davomida amalga oshiriladi. Elektron pochta ochish vaqti soat 15.00 dan soat 16.00 gacha.

Modul mavzulari va unga ajratilgan soatlar taqsimoti:

№	Mavzular	Ma'ruza	Amaliy
1.	Nutq jarayonida tovushlarning o'zgarish xususiyatlari: kombinator o'zgarishlar (assimilyatsiya, dissimilyatsiya, metateza), pozitsion o'zgarishlar.	2	
2.	Nutq jarayonida tovushlarning kombinator va pozitsion o'zgarishlariga doir tahlil qoliplari, mashqlar va testlar.		2
Jami:		2	2

MAVZU	Nutq jarayonida tovushlarining o'zgarishlari.	
Vaqt: 2 soat	Talabalar soni 50 ta	
Mashg'ulot shakli	Ma'ruza mashg'loti	

Amaliy mashg'uloti rejasi	Tovush o'zgarishlarining turlari haqida 3.Kombinator o'zgarishlar haqida ma'lumot 4.Assimilyatsiya va uning turlari 5.Dissimilyatsiya haqida ma'lumot 6. Metateza haqida ma'lumot 7.Pozitsion o'zgarishlar haqida ma'lumot
O'quv mashg'ulotning maqsadi	Talabalar Nutq tovushlarining fonetik o'zgarishlarini berish.
O'qituvchining vazifasi: 1. Tovush o'zgarishlarining turlari haqidagi nazariy bilimlarini aniqlash. Kombinator o'zgarish bo'yicha umumiy tasavur hosil qildirish. 3. Talabalarga pozitsion o'zgarishlar haqida tushuncha berish.	O'quv faoliyatining natijasi 1. Tovush o'zgarishlarining turlari haqidagi bilimlarini aniqlash. 2. Kombinator o'zgarish haqida bilimga ega bo'lish. 3. Pozitsion o'zgarishlar haqida tushunchaga ega bo'lish.
Ta'lim metodi va texnikasi	Suhbat, Muammoli izlanish, "Kaster" metodidan foydalanish uchun" grafik organayzeri, "
Ta'lim vositasi	Proyektor, Ma'ruza matni,
Ta'lim shakli	Yakka tartibdagi savol-javob, guruhlarda ishlash
Ta'lim sharti	Auditoriya, TSOdan foydalanish

Ma'ruza mashg'ulotning texnologik xaritasi

Dars bosqichlari va vaqti	O'qituvchi	Talaba
1-boqich Kirish (5 daqiqa)	1.Ma'ruza mashg'ulotning tashkiliy qismini amalga oshiradi, mavzu (Nutq tovushlarining fonetik o'zgarishlari maqsadi, rejasini e'lon qiladi.	1.Eshitadi, yoq .
2-bosqich Asosiy bosqich (70 daqiqa)	1. Mavzu haqida tushuncha beriladi. (1-ilova) 2. Mavzu yuzasidan misollar keltirib izohlanadi. (2-ilova) 3.Aqliy hujum asosida ma'ruzada o'rganillgan nazariy bilimlarini savol – javob orqali aniqsleydi. (3-ilova)	1. Eshitadi, yoq 2.Eshitadi, yoq 3. Savollarga

4-bosqich Yakuniy bosqich (5 daqiqa)	1.Talabalarni rag‘batlantirish, baholarni e‘lon qiladi, uyga vazifa beradi, mashg‘ulotga yakun yasaydi. 2. Adabiyotlar ro‘yxatini (4-ilova)beradi	1.Eshitadi, yo 2. Eshitadi yo
--	--	----------------------------------

REJA:

1. Nutq jarayonida tovushlarining o‘zgarish xususiyatlari.
2. Kombinator o‘zgarishlar:
3. Positsion o‘zgarishlar

Ma’ruza mashg‘ulotining ta’limiy maqsadi: Ushbu modul orqali talabalarga nutq jarayonida tovushlarning o‘garish xususiyatlarining o‘ziga xos xususiyatlari, hamda bu o‘zbek adabiy tilining ichki imkoniyatlari asosida boyish ifodasi haqida innovatsion texnologiyalarga tayangan holda ma’lumot berish. Fonetik o‘zgarishlar yuzasidan talabalarda mustaqil tadqiqotchilik ko‘nikma va malakalarini shakllantirish.

Ma’ruza mashg‘ulotining tarbiyaviy maqsadi: Nutq jarayonida tovushlarning o‘garish xususiyatlarining o‘ziga xos xususiyatlari, hamda bu o‘zbek adabiy tilining rivojlanisnini tahlil qilish asosida talabalarda adabiy-tadqiqotchilik ko‘nikmalarini kamol toptirishdir.


Ma’ruza mashg‘ulotining rivojlantiruvchi maqsadi: Mavzuni o‘rganish orqali talabalarda nutq tovushlarining o‘zgarshi haqida muayyan tasavvurlar hosil qilish.

O‘quv faoliyatining natijasi: Talabalar nuutq tovushlarining o‘zgarishi orqali turli davrda o‘zbek tili, o‘zbek xalqi tarixi fonetikasini tadqiq qilishni o‘zlashtiradilar va amalda qo‘llash ko‘nikma va malakasiga ega bo‘ladilar.


Tayanch tushunchalar: Nutq tovushlarining o‘zgarishi turlari, kombinator va positsion o‘zgarishlar. Kombinator o‘zgarishlarning turlari: assimilyatsiya, dissimilyatsiya, metateza. Positsion o‘zgarishlar: proteza,epenteza, epiteza, prokopa, apakopa, sinkopa, sinerezis, reduksiya, eliziya.

Har qanday tilda ham tovushlar yozuvda yozilganidek talaffuz qilinavermaydi. Tovushlar kompleksini (tizimini) birga talaffuz qilish natijasida ayrim tovushlar o‘zaro bir-biriga ta’sir qiladi va bu ta’sir tovush o‘zgarishiga olib keladi. Masalan, *yurt* so‘ziga o‘rin-payt kelishigi affiksi *-da*, chiqish kelishigi affiksi *-dan* qo‘shilganda, so‘z oxiridagi *t* tovushi affiksdagi *d* undoshiga ta’sir qilib, uni *t* tovushiga aylantiradi: *yurt+da=yurtta*, *yurt+dan=yurttan* kabi (yozilishi: *yurtda*, *yurtdan*). Bir sanoq soniga dona son affiksi *-ta* qo‘shilganda, affiksdagi *t* undoshning ta’siri bilan so‘zning oxiridagi *r* tovushi *t* ga o‘tadi: *bir+ta=bitta* kabi.

«Nima uchun?» sxemasida nutq jarayonida tovushlarning o‘zgarishi nima uchun sodir bo‘lishinini ushbu jadval asosida tizimlashtiring.



Nima
uchun?
Muammoni
aniqlash, uni hal
etish, tahlil qilish
va jarayonida
qo`llash mumkin



SABAB?

SABAB?

SABAB?

1-guruh «Nima uchun?» texnikasi

Nima uchun?

Nima uchun og`zaki
nutqda nutq
tovushlarida
o`zgarishlar ro`y
beradi?

Nima uchun?

Nima uchun?

Nima uchun?

Nima uchun?

3-guruh

Nima uchun so`zlarni
talaffuz
qilganimizdek
yozmaymiz?

Nima uchun?

Nima uchun?

Nima uchun?

Soʻz tarkibidagi tovushlar nutq jarayonida bir-biriga taʼsir qilmagan holda ham oʻzgarishga uchrashi mumkin. Bunda tovushning soʻz tarkibidagi oʻrni (qanday tartibda joylashganligi); soʻzning boshida yoki oxirida, urgʻuli yo urgʻusiz boʻgʻinda kelishi muhim rol oʻynaydi. Masalan, *odob*, *javob*, *niqob*, *maktab* soʻzlari oxirida kelgan **b** jarangli undosh talaffuzda jarangsiz **p** tarzida talaffuz qilinadi; *negativ*, *normativ pozitiv*, *operativ* kabi ruscha-internatsional soʻzlarning oxirida kelgan **v** jarangli undosh jarangsiz **f** tarzida; *voleybol*, *olimpiada* kabi ruscha-internatsional soʻzlarning urgʻusiz boʻgʻinida kelgan **o** unlisi esa **a** tarzida talaffuz qilinadi: *valeybol*, *alimpiada*. Bunday hodisalarning sodir boʻlishiga nutqda ixchamlikka intilish, boʻgʻinda urgʻuning tushishi yoki tushmay qolishi, shoshilib talaffuz qilish, boshqa tillardan oʻtgan soʻzlarni talaffuz qilishdagi qiyinchiliklar sabab boʻlishi mumkin.

Demak, nutq tovushlarining oʻzgarishi ikki turga boʻlinadi.

Soʻz tarkibidagi tovushlarning bir-biriga oʻzaro taʼsiri natijasida roʻy beradigan tovush oʻzgarishi (fonetik oʻzgarish) **kombinator oʻzgarish** deyiladi. Bunga **assimilyatsiya**, **dissimilyatsiya**, **metateza** kabi hodisalar kiradi.

1. Assimilyatsiyada tovushlardan biri ikkinchi bir tovushni oʻziga aynan yoki qisman oʻxshatib oladi. Masalan, *xat-ni* – *xatti* (oʻzakdagi **t** tovushi affiks tarkibidagi **n** ni aynan oʻziga oʻxshash tovush – **t** ga aylantiradi (yozilishi: *xatni*); *ish+ga* – *ishka* (bunda oʻzakdagi jarangsiz undosh **sh** affiks tarkibidagi jarangli undosh **g** ni oʻziga qisman oʻxshatadi, yaʼni jarangsiz **k** ga aylantiradi (yozilishi *ishga*). Shunga koʻra assimilyatsiya yana ikki turga boʻlinadi: **1) progressiv assimilyatsiyada** oldingi tovush oʻzidan keyingi tovushni oʻziga oʻxshatadi: *ot+da* = *otta* (yozilishi *otda*), *bilak+ga* – *bilakka* (yozilishi: *bilakka*). **2)**

regressiv assimilyatsiyada keyingi tovush o'zidan oldingi tovushni o'ziga o'xshatadi: *tanubur* – *tamabur*, *yigit+cha* = *yigichcha*, *non+voy* = *novvoy*, (yozilishi: *tanbur*, *yigitcha*, *novvoy*).

2. Dissimilyatsiyada ikkita aynan yoki qisman o'xshash tovushdan biri yoki har ikkalasi talaffuzda o'zgarib, noo'xshash tovushga aylanib qoladi. Masalan, *zarur* – *zaril* (*zarar* so'zi tarkibidagi ikkita bir xil **r** undoshining biri talaffuzda **l** ga aylangan). Yana qiyoslang: *koridor*>*kalidor*, *devor*>*devol*, *nodon*>*lodon*, *biror*>*biron* (yozilishi: *zarur*, *koridor*, *devor*, *biror* yoki *biror*, *nodon*).

3. Metateza so'z tarkibidagi ayrim tovushlarning talaffuzda o'rin almashuvidir. Masalan: *daryo* – *dayro* (bunda **r** va **y** undoshlarining o'zaro o'rin almashuvi yuz bergan); *ahvol* – *avhol* (hv-vh), *aylanay* – *aynalay* (ln-nl), *tuproq-turpoq* (pr-rp); *yog'mir-yomg'ir* (g'm- mg'); yozilishi: *daryo*, *ahvol*, *aylanay*, *tuproq*, *yomg'ir*.

Til garmoniyasi-Til garmoniyasida unli tovush yumshoqlik yoki qattqlik, til oldilik yoki til orqalik jihatdan bir-biriga moslashadi

Lab garmoniyasi- Lab garmoniyasida unlining moslashishi ikki tomonlama bo'ladi. Bunda unli ham tiloldi-tilorqalik jihatidan, ham lablanganlik-lablanmaganlik jihatidan boshqa unliga va undoshga moslashadi.

a) to'liq assimilyatsiya. so'z tarkibidagi bir tovushning ikkinchi bir tovushni aynan o'zi kabi tovushga aylantirishidir: *to'k+gan* =*to'kkan*, *yet+di*=*yetti*, *chiq+gan* = *chiqqan*, *tuz+siz*=*tussiz*, *o'ris+cha*=*o'richcha* (yozilishi: *yetdi*, *sizni*, *chiqqan*, *tuzsiz* *o'rischa*). Bunda tovushlar o'zaro moslashadi; **2) to'liqsiz assimilyatsiya** so'z tarkibidagi bir tovushning ikkinchi bir tovushni o'ziga qisman o'xshatib olishidir: *o'ch+gan*=*o'chkan*, *shosh+di*=*shoshti*, *tush+ga*=*tushka* ... (bular da jarangsiz *ch*, *sh* undoshlari affiks tarkibidagi jarangli **g** ni jarangsiz **k** ga, **d** ni esa **t** ga aylantirgan; yozilishi: *o'chgan*, *shoshdi*, *tushga*). To'liqsiz assimilyatsiyada ba'zan tovushlar o'r>niga ko'ra ham moslashadi: *shanba* > *shamba*. Bunda *b* lab tovushining ta'sirida **n** til

tovushi lab-lab **m** tovushiga aylanadi.

O'zbek tilida nutq tovushlarining o'zgarishining position o'zgarishlarini o'rgatish jarayonida "Veen diagrammasi" metodidan foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Metodning maqsadi: Bu metod grafik tasvir orqali o'qitishni tashkil etish shakli bo'lib, u uchta o'zaro kesishgan aylana tasviri orqali ifodalanadi. Mazkur metod turli tushunchalar, asoslar, tasavurlarning analiz va sintezini turli aspekt orqali ko'rib chiqish, ularning umumiy va farqlovchi jihatlarini aniqlash, taqqoslash imkonini beradi.

Metodni amalga oshirish tartibi:

- ishtirokchilar ikki kishidan iborat juftliklarga birlashtiriladilar va ularga ko'rib chiqilayotgan tushuncha yoki asosning o'ziga xos, farqli jihatlarini (yoki aksi) doiralar ichiga yozib chiqish taklif etiladi;
- navbatdagi bosqichda ishtirokchilar to'rt kishidan iborat kichik guruhlariga birlashtiriladi va har bir juftlik o'z tahlili bilan guruh a'zolarini tanishtiradilar;
- juftliklarning tahlili eshitilgach, ular birgalashib, ko'rib chiqilayotgan muammo yohud tushunchalarning umumiy jihatlarini (yoki farqli) izlab topadilar, umumlashtiradilar va doirachalarning kesishgan qismiga yozadilar.

Ushbu metod orqali **assimilyatsiya va dissimilyatsiya hodisasining o'xshash va farqli tomonlarini tahlil etamiz:**

Assimilyatsiyada tovushlardan biri ikkinchi bir tovushni o'ziga aynan yoki qisman o'xshatib oladi. Masalan: xat-ni – xatti, ish+ga-ish+ka, tan+hur – tam+hur. tuz+siz – tus+siz.

Dissimilyatsiyada ikkita aynan yoki qisman o'xshash tovushdan biri yoki har ikkalasi talaffuzda o'zgarib, noo'xshash tovushga

Har ikki tovush o'zgarishi so'z tarkibidagi tovushlarning bir-biriga o'zaro ta'siri natijasida hosil bo'ladi

Fonetik oʻzgarish – nutqda qulaylik, tejam uchun tovushlarning bir-biriga taʼsiri natijasida yoki tutgan oʻrniga koʻra tushib qolishi, orttirilishi, almashishi, moslashishi kabi oʻzgarish hodisasi.

Nutq jarayonida tovushni ketma-ket keltirish yoʻli bilan turli maʼnoli birlik hosil qilamiz. Mas., *t-o-sh, b-o-sh, q-o-l*. Soʻz tarkibidagi tovush alohida-alohida emas, balki uzluksiz talaffuz qilinadi. Soʻz uzluksiz talaffuz qilinganda, uning tarkibidagi bir tovush hali toʻliq talaffuz qilinmay turib, nutq aʼzosi ikkinchisiga tayyorlanib turadi. Natijada tovush zanjiri vujudga keladi. Talaffuz qulayligiga intilish tufayli nutq jarayonida tovush zanjirida turli fonetik oʻzgarish roʻy beradi. Mas., *togʻ* asosiga *-ga* qoʻshimchasini qoʻshsak, asos oxiridagi chuqur til orqa *gʻ* dan soʻng til orqa *g* undoshi kelib, chuqur til orqa tovushidan til orqa tovushiga birdaniga oʻtish qiyinlashadi. Talaffuz noqulayligi vujudga keladi. Ana shu noqulaylikni bartaraf qilish uchun ikkinchi tovush ham chuqur til orqaga aylantiriladi va har ikkisi ham jarangsizlashadi: *togʻ + ga – toqqa, bogʻ + ga – boqqa* kabi.

Fonetik oʻzgarish unliga ham, undoshga ham taalluqli.

Singarmonizm. Unlining nutq jarayonida oʻzgarishi *singarmonizm* deyiladi. Singarmonizm unlining moslashishi, uygʻunligi demakdir. U faqat turkiy tillarga xos.

Singarmonizmning ikki asosiy koʻrinishi farqlanadi: a) til garmoniyasi; b) lab garmoniyasi.

Til garmoniyasida unli tovush yumshoqlik yoki qattiqlik, til oldilik yoki til orqalik jihatdan bir-biriga moslashadi. Singarmonizmning til garmoniyasi qonuniyatiga koʻra, soʻzning boshida til oldi unlisi kelsa, soʻz oʻrtasi va oxirida ham shunday unli keladi. Boshqacha aytganda, soʻzning boshida undoshning hosil boʻlish (artikulyatsion) oʻrniga bogʻliq ravishda unli tovushda yuz bergan oʻzgarish soʻzning keyingi boʻgʻindagi unlida ham yuz beradi. Bu hol soʻzning talaffuzida qulaylikka olib keladi. Mas., *qalam* soʻzidagi *q* undoshi chuqur til orqa undoshi boʻlganligi bois, birinchi boʻgʻindagi *a* unlisi ham til orqalik

xususiyatiga ega bo'ladi. Buning natijasida esa keyingi bo'g'indagi *a* tovushi ham til orqa unlisi sifatida namoyon bo'ladi. Demak, birinchi *a* unlisi *q* undoshiga, keyingi bo'g'indagi *a* esa oldingi bo'g'indagi *a* unlisiga moslashadi.

Lab garmoniyasida unlining moslashishi ikki tomonlama bo'ladi. Bunda unli ham tiloldi-tilorqalik jihatidan, ham lablanganlik-lablanmaganlik jihatidan boshqa unliga va undoshga moslashadi. Bunga ko'ra, so'z boshidagi unli lablangan til oldi unlisi bo'lsa, so'z oxirida ham lablangan til oldi unlisi keladi. So'z boshidagi unli lablangan til orqa unlisi bo'lsa, so'z oxiridagi unli ham lablangan til orqa unlisi bo'ladi. Mas., *boshqird*, *sog'in*, *bo'g'in* so'zidagi kabi.

Tovush o'zgarishi turi. Fonetik qonuniyat asosida yuz beradigan o'zgarish turini sanaymiz.

Tovush moslashishi (assimilatsiya). Assimilatsiya – lotincha *assimilare* – o'xshatib olish demak. Tovush moslashishi to'liq va to'liqsiz bo'lishi mumkin. Tovush moslashishi to'liq (*yoz + sin = yossin*) yoki qisman (*yoq + sa = yoxsa*, *tanbur – tambur*) moslashish bo'ladi.

Moslashish hodisasi ikki xil:

a) **progressiv moslashish** da oldingi tovush keyingi tovushni o'xshatib oladi. Masalan: *otdan – ottan*, *ishdan – ishtan*, *soldat – sollat* va boshqalar.

b) **regressiv moslashish** da keyingi tovush oldingi tovushni o'xshatib oladi: *shanba – shamba*, *ichsa – issa*, *oqshom – oxshom*, *tuzsiz – tussiz* kabi.

Tovush noo'xshashligi (dissimilatsiya). Dissimilatsiya lotincha *dissimilate* – noo'xshashlik degani, bu fonetik hodisada tovushning ta'siri natijasida noo'xshash tovush talaffuz qilinadi. Tovush noo'xshashligi hodisasi ham ikki xil bo'ladi:

a) **progressiv noo'xshashlik** da oldingi tovush ta'sirida keyingi tovush paydo bo'lish o'zni va usulini o'zgartiradi va tovushning sifatida o'zgarish – noo'xshashlik yuzaga keladi. Masalan: *zarur – zaril*, *zarar – zalal*, *birorta – bironta*, *madad – madat*, *kabob – kabop*, *rubob – rubop* kabi.

b) *regressiv noo‘xshashlik* da keyingi tovushning ta’siri bilan oldingi tovushda o‘zgarish ro‘y beradi. Masalan: *po‘chta – po‘shhta, maqtanchoq – maxtanchoq, uchta – ushta* kabi.

Ba’zi so‘zda har ikki hodisa (tovush moslashishi va tovush noo‘xshashligi) ham uchraydi. Masalan: *uchdi – uchti – ushti, ichdi – ichti – ishti* kabi.

Metateza. Og‘zaki nutqda ba’zan yonma-yon kelgan undosh tovushning o‘rni almashishi mumkin. Nutqdagi bunday jarayon metateza deyiladi: *r – y: daryo – dayro; m – g‘: yomg‘ir – yog‘mir, b – r: tebratmoq – terbatmoq; m – l: yamlamoq – yalmamoq; h – v: ahvol – avhol; p – r: tuproq – turpoq, r – g: o‘rganmoq – o‘granmoq; g‘ – r: to‘g‘ramoq – to‘rg‘amoq, n – m: aylanmoq – aynalmoq* va boshqa.

So‘z o‘zagida yoki unga biror qo‘shimcha qo‘shilganda, o‘zakdagi *a* unlisi *o* ga yoki *i* unlisi *u* ga almashadi va shunday yoziladi: *ong – angla, son – sana, ot – ata, yosh – yasha; sayla – saylov, to‘pla – to‘plov; tara – taroq, so‘ra – so‘roq, chanqa – chanqoq; o‘qi – o‘quv, to‘qi – to‘quv* kabi.

Ayrim so‘zga egalik qo‘shimchasi qo‘shilganda so‘z o‘zagidagi *k* va *q* tovushi *g* va *g‘* ga almashadi va shunday yoziladi: *bilak – bilagi, tilak – tilagi, buloq – bulog‘i, tirnoq – tirnog‘i* kabi.

Ammo ayrim so‘zda bunday tovush o‘zgarishi bo‘lmasligi mumkin: *nok – noki, doq – doqi, oq – oqi, zavq – zavqi* kabi.

Ba’zi so‘zda yonma-yon kelgan tovush o‘rni almashadi. Masalan: *sayram – saryam, daryo – dayro, tuproq – turpoq, to‘g‘ramoq – to‘rg‘amoq* kabi.

Yomg‘ir so‘zi *yog‘mur* tarzida aytilsa ham *yomg‘ir* yoziladi (bu so‘z aslida *yag‘mur* shaklida bo‘lgan).

Tovush o‘zgarishi tasnifi. Aytilganlar asosida tovush o‘zgarishini uch xil tasniflash mumkin:

1. So‘zning qaysi qismida ro‘y berishiga ko‘ra:

a) o‘zakda yuz bergan tovush o‘zgarishi: *hukm – hukum, stakan – istakan, og‘iz – og‘zi;*

b) qo‘shimchada yuz bergan tovush o‘zgarishi: *uchdi – uhti, birorta – bironta, itdan – ittan*;

d) ham o‘zak, ham qo‘shimchada yuz bergan tovush o‘zgarishi: *bog‘ga – boqqa, uchdan – ushtan*.

2. Yozuvda aks etishiga ko‘ra:

a) yozuvda aks etadigan tovush o‘zgarishi: *shuga – shunga, birorta – bironta, og‘iz – og‘zi*;

b) yozuvda aks etmaydigan tovush o‘zgarishi: *hukm – hukum, stakan – istakan, bog‘ga – boqqa, uchdan – ushtan*;

3. Tovush o‘zgarishining tabiatiga ko‘ra:

a) tovush tushishi: *menning – mening, muallim – malim, og‘iz – og‘zi*;

b) tovush orttirilishi: *hukm – hukum, stakan – istakan*;

d) tovush almashishi: *tanbur – tambur, bog‘ga – boqqa, uchdan – ushtan*

Tovushning so‘z tarkibidagi o‘rni (joylashish tarkibi) uning **pozitsiyasini** tashkil qiladi. Tovush so‘zning turli o‘rinlarida kela oladi. Masalan, **d** undoshi *dono, dehqon, doston* so‘zlarining boshida; *abadiy, aerodrom, badiiy, bayroqdor* so‘zlarining o‘rtasida; *taqlid, obod* so‘zlarining esa oxirida kelgan. Shu so‘zlarni talaffuz qilganimizda, ularning ayrimlari (masalan, *dono, dehqon, doston, abadiy, aerodrom, badiiy, bayroqdor...*) tarkibidagi *d* undoshi hech qanday o‘zgarishga uchramaydi, ammo *taqlid, obod* so‘zlari tarkibidagi bu undosh jarangsiz **t** tarzida (*taqlit, obot*) aytiladi. Demak, mazkur undoshning talaffuzda o‘zgarishi – jarangli tovushning jarangsizlanishi uning ma’lum bir pozitsiyada – so‘z oxirida kelishi bilan bog‘liq. *Kosmonavt, kosmodrom, limonad, mikrofon, orkestr* so‘zlarining urg‘usiz bo‘g‘inida kelgan **o** unlisi **a** tarzida (*kasmanavt, kasmadrom, limanad, arkestr, mikrafon* kabi) talaffuz qilinsa, *kartoshka, direktor, lektor, diktir, agressor* so‘zlarining urg‘usiz bo‘g‘inida kelgan **o** unlisi qisqa **i** tarzida (*kartishka, direktir, lektir, diktir, agressir* kabi) talaffuz qilinadi. Bu tipdagi ruscha-internatsional so‘zlar tarkibidagi **o** tovushining goh **a**, goh **i** kabi aytilishi ularning urg‘usiz bo‘g‘inda kelishi bilan bog‘liqdir.

Tovushning soʻzdagi oʻrni, urgʻuli yoki urgʻusiz boʻgʻinda kelishi bilan bogʻliq holda yuz beradigan oʻzgarishlar **pozitsion oʻzgarishlar** deyiladi. Pozitsion oʻzgarishlarning quyidagi turlari bor:

1) proteza soʻz boshida bitta unlining orttirilishidir. Odatda, aksariyat sonor **r** tovushidan oldin **oʻ** unlisi orttiriladi: *roʻmol* - *oʻramol*, *roʻza* - *oʻraza*. Ayrim holatda soʻz boshida sirgʻaluvchi va portlovchi ikki undosh qator kelganda **i** yoki **u** unlisi orttirilishi mumkin: *shkaf-ishkaf*, *stol-ustol*, *stul-ustul*.

2) epenteza soʻz boshida, oʻrtasida va oxirida ikki undosh qator kelganda, unli tovushning orttirilishidir: *fikr* - *fikir*, *hukm* - *hukum*, *uzr* - *uzur*.

3) epiteza soʻz oxirida bir oʻrinda kelgan ikki undoshdan soʻng **a** tovushining qoʻshilish hodisasidir: *disk* - *diska*, *bank* - *banka*, *tank* - *tanka*, *kiosk* - *kioska* kabi.

4) prokopa soʻz boshida unli yoki undosh tovushning tushib qolish hodisasidir: *yigna* - *igna*, *yogʻoch* - *ogʻoch*, *yirik* - *iri*.

5) sinkopa hodisasiga binoan soʻz oʻrtasidagi va oxiridagi keng unlilar tor unlilar kabi talaffuz qilinadi va ayrim holatlarda tushib qoladi: *traktor* - *traktir*, *direktor* - *direktir*, *generator* - *generatir* kabi.

6) apakopa soʻz oʻzigidagi oxirgi unli yoki undoshning tushishi hodisasidir: *doʻst* - *doʻs*, *xursand* - *xursan* va hokazo.

7) sinerezis hodisasiga koʻra soʻz oʻrtasida bir joyda kelgan ikki unlining biri kuchsizlanadi va nutqda tushib qoladi, ikkinchi unli fonema esa choʻziq talaffuz qilinadi: *maorif* - *mo:rif*, *saodat* - *so:dat*, *qiroat* - *qiro:t*, *jamoat* - *jamo:t*.


8) reduksiya soʻzning birinchi boʻgʻinida biror unlining (odatda tor unlining) kuchsizlanib talaffuz qilinishidir. Masalan, *bir*, *bil*, *til* soʻzlari bir boʻgʻinli boʻlganligi va urgʻu shu soʻzdagi **i** unlisiga tushganligi tufayli bu soʻzlardagi **i** unlisi normal holda talaffuz qilinadi va normal holda eshitiladi. Lekin shu soʻzlarning oxiriga ikkinchi bir boʻgʻin qoʻshilishi bilan, urgʻu ham ikkinchi boʻgʻinga koʻchadi. Natijada birinchi boʻgʻindagi **i** unlisi kuchsizlanadi va eshitilar-eshtilmas holda sust talaffuz qilinadi: *bilak*, *tilak*, *biroq*.

Reduksiyaning ikkinchi bo‘g‘inda kelish hollari ham uchrab turadi. Bu hodisa so‘zga uchinchi bo‘g‘in qo‘shilganda sodir bo‘ladi – ikkinchi bo‘g‘indagi unli tamoman kuchsizlanib, tushib qoladi. Masalan, *burun - burni, bo‘yin - bo‘yni, egin - egni* singari.

9) eliziya unli bilan tugaydigan va unli bilan boshlanadigan ikki so‘zning qo‘shilishi natijasida unli tovushdan birining tushib qolish hodisasidir. Bunda bir necha holat kuzatiladi: a) birinchi so‘z oxiridagi unli tushib qoladi: *yoza oladi – yozoladi, bora oladi – boroladi*; b) unli bilan boshlanuvchi ikkinchi so‘zning bosh unlisi tushib qoladi: *borar ekan – borarkan, borar emish – borarmish, yozgan ekan – yozgankan* kabi; d) *Abdusalom* so‘zining *Absalom, Abdujabbor* so‘zining *Abjabbor, olib kel* so‘zining *opke* tarzida talaff qilinishi natijasida bir unli va bir undoshning tushib qolishi hodisasi ham eliziyaning yuqori, murakkablashgan shakli hisoblanadi. Bunday hollarda eliziyaning murakkablashishi natijasida so‘zlarning qisqargan shakllari hosil bo‘ladi.

Eliziya – unli bilan tugovchi va boshlanuvchi ikki so‘zning qo‘shilishi natijasida unlidan birining tushib qolish hodisasi. Bunda bir necha holat kuzatiladi; a) birinchi so‘z oxiridagi unli tushib qoladi: *yoza oladi – yozoladi, bora oladi – boroladi, qora ot – qorot*; b) unli bilan boshlanuvchi ikkinchi so‘zning bosh unlisi tushib qoladi: *borar ekan – borarkan, borar emish – borarmish, yozgan ekan – yozgankan* kabi; d) *Abdusalom* so‘zining *Absalom, Abdujabbor* so‘zining *Abjabbor, olib kel* so‘zining *opke* tarzida talaffuz qilinishi natijasida bir unli va bir undoshning tushib qolishi ham eliziyaning yuqori, murakkablashgan shakli hisoblanadi. Eliziyaning murakkablashishi natijasida so‘zning qisqargan shakli hosil bo‘ladi.

”Klaster” jadvalini ushbu texnikaning ta’rifi, maqsadi vazifalari va o‘quv faoliyatini tashkillashtirishning jarayonli tuzilmasi asosida tizimlashtiring.



Klaster tuzish qoidasi



Klasterlarni ketma- ketlikda tuzish mumkin:

- 1.Sinf taxtasining o`rtasida tayanch yoki “kalit” so`z yozib qo`yiladi.
- 2.Mavzuga doir barcha so`zlar, gaplar ta`anch so`z atrofiga joylashtiriladi.
- 3.Tushuncha va g`oyalar o`rtasidagi bog`liq aniqlanadi hamda yozib boriladi, (xatoga qilinadi.)
- 4.Belgilangan vaqt doirasida har bir ta`lim oluvchining fikriga keelgan so`z yoki gapni yozib qo`yiladi.
- 5.Ishlar bajarib bo`lingandan so`ng kutilayotgan natija , ta`lim oluvchilar o`zlashtirish natijasi, o`qish samaradorligi, yo`l qo`yilgan xato va kamchiliklar tahlil qilinib o`qituvchi yoki o`qiluvchi yakuniy natija e`lon qilinadi.



O`qituvchi: Talabalarni yangi mavzu bilan tanishtiradi
Xattaxtaga “Kombinator va pozitsion o`zgarishlar” deb yozadi.

1. Nimani o`ylagan bo`lsangiz, shuni qog`ozga yozing. Fikringizni sifati to`g`risida o`rnatib.
2. Yozuvingiz orfografiyasi yoki boshqa jihatlariga e`tibor bermang.
3. Berilgan vaqt nihoyasiga yetmaguncha yozishdan to`xtamang. Agar ma`lum muammo yuzasidan qog`ozni to`rtinib qolgan bo`lsa, rasmini chiza boshang. Bu holatni yangi g`oya tug`ilguncha davom ettiring.
4. Muayyan tsuncha doirasida imkoniyat qadar ko`proq yangi g`oyalarni yig`ib chiqaring. Barcha g`oyalarni yig`ib cheklamang.


Talaba: Hamma tushunchalarni qabul qiladi.

1. Nimani o`ylagn bolsa shini qog`ozga yozadi.
2. Yozuvlarning orfografik, grammatik jihatlariga e`tibor bermaydi.
3. Brilgan vaqt nihoyasiga yetmagunga qadar o`z fikrini davom ettiradi.
4. Muayyan tushuncha yuzasidan ko`proq ma`lumotlarni yoritishga harakat qiladi.

Texnologiya nihoyasiga yetgach o`qituvchi o`qituvchi boshchiligida tahlil qilinadi.

Kutiladigan natija : Talabalar Kombinator va pozitsion o`zgarishlar haqida, ularning tashkil etilishini o`rganib bilib oladilar.

«Klaster» metodidan foydalanib “Tovush oʻzgarishlarining turlari” mavzusida Klaster tuzish



«Toifalash» jadvali asosida tuzilgan “Klaster”ni toifalash

Kombinator oʻzgarishlar	Positsion oʻzgarishlar
Assimilyatsiya	Proteza
Dissimilyatsiya	Epiteza
Metateza	Epenteza
	Apakopa
	Sinerezis

Amaliy mashgʻulotning texnologik xaritasi

Mavzu	Nutq jarayonida tovushlarning kombinator va pozitsion oʻzgarishlari
Taʼlim berish texnologiyasi	
Mashgʻulot vaqti 2 soat	Talabalar soni 25 ta
Mashgʻulot shakli	Amaliy mashgʻulot
Amaliy mashgʻulot rejasi	1. Nutq jarayonida tovushlarning kombinator va pozitsion oʻzgarishlari 2. Nutqda kombinator oʻzgarishlarning hosil boʻlishi 3. . Nutqda pozitsion oʻzgarishlarning hosil boʻlishi

Amaliy mashg'ulotning ta'limiy maqsadi: Nutq jarayonida tovushlarning o'zgarishi haqida talabalarda bilim oshirish. Amaliy mashg'ulotining tarbiyaviy maqsadi: Talabalarda milliy o'zlikni anglashda o'z his-tuyg-usini s Amaliy mashg'ulotining rivojlantiruvchi maqsadi: Mavzuni o'rganish orqali talabalarda nutq jara muayyan tasavvurlar hosil qilish. O'quv faoliyatining natijasi: Talabalar : Nutq jarayonida tovushlarning o'zgarishi, ularning turlari, ho malakasiga ega bo'ladilar.	
Pedagogik vazifalar: • modul yuzasidan ma'lumot berish; • modulga doir metodik va tashkiliy ishlarning xususiyatlari, muddati va baholash mezonlari bilan tanishtirish; • modulning obyekti, predmeti, maqsad va vazifalarini aniqlashtirish; • Nutq jarayonida tovushlarning o'zgarishiga doir ma'lumotlarni to'plash va sheva xarakteristikasi haqida ijodiy faoliyatini tadqiq etish; • O'zbek shevalari leksikasi tushunchasiga bo'lgan qarashlarining metodologik asoslarini ochib berish; • Nutq jarayonida tovushlarning o'zgarishini tarixiy jihatdan leksik qatlamlarini bayon etish; • Nutq jarayonida tovushlarning o'zgarishi masalasiga bugungi davr tnuqtai nazari bilan yondashish; • Nutq jarayonida tovushlarning o'zgarishi o'rganishda interfaol metodlarni qo'llash imkoniyatlaridan o'rinli foydalanish.	O'quv faoliyati natijalari: • modul haqida tushunchaga ega; • modulning obyekti, predmeti, maqsad va vazifalarini aniqlashtirish; • Nutq jarayonida tovushlarning o'zgarishiga doir ma'lumotlarni to'plash va sheva xarakteristikasi haqida ijodiy faoliyatini tadqiq etish; • Nutq jarayonida tovushlarning o'zgarishini tarixiy jihatdan leksik qatlamlarini bayon etish; • Nutq jarayonida tovushlarning o'zgarishi masalasiga bugungi davr tasavvurlar hosil qilinadi; • modulning boshqa fanlar bilan aloqasini o'rnatish; • adabiy ta'limga qo'yilayotgan talablar bilan tanishtirish; • adabiy ta'limda interfaol metodlarni qo'llash imkoniyatlaridan o'rinli foydalanish;
Ta'lim berish usullari	“BBB” jadvali, FSMU texnologiy
Ta'lim berish metodlari	tushuntirish, suhbat
Ta'lim berish vositalari	O'quv qo'llanma, proektor, elektro
Ta'lim berish sharoiti	O'TV bilan ishlashga moslashtiril
Monitoring va baholash	O'z-o'zini nazorat qilish

Amaliy mashg'ulotning texnologik xaritasi

Ish bosqichlari va vaqti	Faoliyat mazmuni	
	Ta'lim beruvchi	Ta'lim oluvchilar
Tayyorgarlik bosqichi	1. Modul bo'yicha o'quv mazmunini tayyorlash. 2. Modul ma'ruzasi uchun taqdimot slaydlarini tayyorlash. 3. Talabalar o'quv faoliyatini baholash mezonlarini ishlab chiqish. 4. Modulni o'rganishda foydalaniladigan adabiyotlar ro'yxatini tuzib chiqish.	Oldindan tavsiya etilgan mavzuga doir ilmiy va badiiy asarlar bilan tanishadilar.
1. Mavzuga kirish (15Daqiqa)	1.1 Modul mavzusi bilan tanishtiradi.Mavzular va adabiyotlar ro'yxatini berib, ularga qisqacha ta'rif beradi. 1.2. mavzuga oid ilmiy atamalarni ochib berish, asosiy masalalar bo'yicha tushunchalarni shakllantirish 1.3. Modulning mavzusi, uning maqsadi va o'quv faoliyati natijalari bilan tanishtiradi. 1.4. Talabalar o'quv faoliyatini baholash mezoni bilan tanishtiriladi. 1.5. Talabalar bilimlarini faollashtirish maqsadida muammolar qo'yiladi.	Tinglaydilar, yozib oladilar Tinglaydilar, yozib oladilar. Tinglaydilar, bilib oladilar. Talabalar muammolar yechimini izlaydilar va o'z fikrlarini bayon etadilar..

2.Asosiy bosqich (55 daqiqa)	2.1. Power Point dasturi yordamida slaydlarni namoyish qilish va izohlash bilan modul bo'yicha asosiy nazariy jihatlarini tushuntirib beradi. 2.2. Modulni o'rganish obyekti. 2.3. Modul yuzasidan mukammal tasavvurga ega bo'ladilar.. 2.4 FSMU metodining ustunini to'ldirishni so'raydi. 2-ilova 2.5. Talabalar bilimlarini faollashtirish va mustahkamlash maqsadida muammolar taqdim etiladi.	Tinglaydilar, yozadilar. O'tilgan axborotni analiz-sintez qilib, tizimlashtiradilar. Savollar bilan murojaat etadilar, aniq tasavvurlar tizimiga ega bo'lishadi. Tinglaydilar, yozadilar. B/B/B metodining "Bilaman" ustunini to'ldiradilar. Talabalar berilgan muammolar yechimini taqdim etadilar.
3.Yakuniy bosqich (10 daqiqa)	3.1. Venn diagammasi orqali ustunni to'ldirishni so'raydi.1-ilova 3.2. FSMU chizmalarini o'qitish orqali talabalarning umumiy tasavvurlarini aniqlaydi.1-ilova 3.3. Aniq tasavvurlar shakllanmagan qismlarini qayta tushuntiradi. 3.4. Modul bo'yicha talabalarda yuzaga kelgan savollarga javob beradi, yakunlovchi xulosa qiladi. 3.5. Uyga vazifa: O'zbek shevalari leksikasiga oid o'z hududi va qishlog'ida uchraydigan leksik qatlamga doir lug'at tuzib kelish .	Savollar beradilar Uyga vazifani yozib oladilar Topshiriqni yozib oladilar. Metodining "Bilib oldim" ustunini to'ldirib, tugatadilar va o'z tasavvurlarini boshqalarniki bilan taqqoslaydilar. O'z tasavvurlarini boyitadilar va to'ldiradilar. Savollar beradilar Topshiriqni yozib oladilar. O'z-o'zini baholaydi. Uyga vazifani yozib oladilar

Amaliy mashg'ulotda qo'llaniladigan interfaol metodlar.


FSMU» mantiqiy fikrlashga o'rgatuvchi texnologiya

Ushbu texnologiya munozarali masalalarni xal etishda, baxs-munozaralar o'tkazishda yoki o'quv-seminari yakunida (tinglovchilarning o'quv seminari haqidagi fikrlarini bilish maqsadida), yoki o'quv rejasi asosida Biron bo'lim

o'rganib bo'lingach qo'llanilishi mumkin, chunki bu texnologiya tinglovchilarni o'z fikrini himoya qilishga, erkin fikrlash va o'z fikrini boshqalarga o'tkazishga, ochiq holda baxslashishga, shu bilan bir qatorda o'quvchi talabalarni, o'quv jarayonida egallagan bilimlarini tahlil etishga, qay darajada egalliklarini baholashga hamda tinglovchilarni bahslashish madaniyatiga o'rgatishga xizmat qiladi.

FIKR MULOHAZA ISBOT

■FSMU



- F – Fikringizni bayon eting
- S – Fikringizni bayoniga sabab ko'rsating
- M – Fikringizga misol ko'rsating
- U–Fikrlaringini umumlashtiring ,hulosalang

Tarqatma materialining taxminiy nusxasi.

FSMU texnologiyasi


(F) - Fikringizni bayon eting.

(S) - Fikringiz bayoniga biror sabab ko'rsating.

(M) - Ko'rsatgan sababingizni isbotlab misol (dalil) keltiring.

(U) - Fikringizni umumlashtiring.

«FSMU» mantiqiy fikrlashga o'rgatuvchi texnologiyadan foydalanish jarayonining bosqichlari



«FSMU» texnologiyasini qo`llashga oid namuna

«Nutq jarayonida undoshlarning jarangsizlashuvi omili sabablari nimada?» degan savol muhokamaga qo`yilgan.

F	Fikringizni bayon eting	Talaffuz jarayonida jarangli undoshlar jarangsiz tarzda talafuz qilinadi.
S	Qarorning sababi	Dars jarayonlarida tovush o`zgarishlari orqali hosil bo`lgan so`zlarning to`gri talaffuz qilinishini o`rganish lozim.
M	Misol	Kitob-kitop, maktab-maktab, obod-obot, mard-mart;
U	Xulosa	Talabalar hutq jarayonida tovushlarning o`zgarishini yaxshi bilishlari lozim va yozma nutqda jaranglisini yozishlari lozim.

“BBB” metodini o`tkazish bosqichlari:

Talabalarni yangi mavzu bilan tanishtiradi;
 Mazkur mavzu bo`yicha bilgan bilimlarini xohlagan tushuncha va ma`lumotlarni yozishlari lozim bo`ladi. Berilgan sxema asosida ishlari kerak. Uchunchi “bilib olim” bo`limi bo`sh qoldiriladi. Belgilangan vaqt o`tgandan so`ng topshiriqlar yig`ib olinadi.
 - Ular bilmagan jihatlar yoritib beriladi.
 - dars yakunida “bilib oldim” ustuni to`ldiriladi va avvalgi olingan bilimlar bilan taqqoslanadi.

O`qituvchi:

Talaba:

Berilgan mavzu bo'yicha bilgan va bilmaganlarini yo'zadi.
Mustaqil ijodiy ishlaydi.

Kutiladigan
natija:


Talabalar mavzu yuzasidan zaruriy bilimlarni o'zlashtiradi.

BBB jadvalining taxminiy nusxasi

Bilaman	Bilishni xohlayman	Bilib oldim
Undosh tovushlarning nutq jarayonida o'zgaarishini	Proteza hodisa haqida	Tovush o'zgarishlari so'z tarkibidagi tovushlarning bir-biriga o'zaro ta'siri natijasida ro'y berishini
Unli tovushlarning talaffiz jarayonida o'zgaarishini	Reduksiya hodisa haqida	Assimilyatsiyada tovushlardan biri ikkinchi bir tovushni o'ziga aynan yoki qisman o'xshatib olishini
Jarangli undosh tovushlarning talafuzda jarangsizlashishini	Eliziya hodisa haqida	Progressiv assimilyatsiyada oldingi tovush o'zidan keyingi tovushni o'ziga o'xshatib olishini
	Nutq jarayonida tovushlarni to'g'ri talaffuz qilishda nimalarga e'tibor berishni	Regressiv assimilyatsiyada keyingi tovush o'zidan oldingi tovushni o'ziga o'xshatib olishini

--	--	--

“Qanday?” ierarxik diagrammasi vositasida muammoni echimini toping?



Fan yuzasidan keyslar to‘plami

...

	Maslahat va tavsiyanomalar
1Keys bilan tanishish (3daqqa)	Taqdim etilayotgan aniq vaziyatlar bilan tanishib chiqing. Muammoli vaziyat mazmuniga e’tibor qarating. Muammoli vaziyat qanday masalani yechishga qaratilgan.

2. Keysdagi asosiy va kichik muammolarni aniqlash. (individual va vakichik guruhlarda) 5 daqiqa	Keysdagi asosiy va kichik muammolarni aniqlang. O'z fikringizni guruh bilan o'rtoqlashing. Muammni belgilashda isbot va dalillarga suyaning. Keys matnidagi hech bir fikrni e'tibordan chetda qoldirmang.
3. Muammo yechimini topish va e'erishiladigan natijani aniqlash-7-daqiqa	Guruh bilan birgalikda muammo yechimini toping. Muammoga doir yechim bir necha variantda bo'lishi mumkin. Shu bilan birga siz topgan yechim qanday natijaga olib kelishinimumkinligini aniqlang.
4. Keys yechimi uchun taklif etiladigan g'oyalar taqdimoti (kichik guruhlarda) – 5 daqiqa	Guruh bilan birgalikda keys yechimiga doir taqdimotni tayyorlang. Taqdimotni tayyorlashda sizga taqdim etilgan jadvalga asoslaning.

Muammo (asosiy va kichik muammolar)	Yechim	Natija
--	---------------	---------------

Keys

Auditoriyada “Ona tili ” fanidan nazorat ishi olinayotgan edi. O‘qituvchi nazorat ishini yozma ravishda olishini talabalarga e’lon qildi va oraliq nazorat savollarini barcha talabalarga variantlar asosida tarqatib bera boshladi. Shu payt o‘qituvchi 31 ta talabaga 30 ta savol variantlari tuzib kelganligini anglab qoldi va vaziyatdan chiqish uchun orqa partada o‘tirgan Abdusalom va Abdujabbor ismli talabalarga bir xil variant savollarini tarqatib berdi. Nazorat ishi davomida talabalar o‘zlariga brigan variant savollari asosida nazorat ishini yoza boshladilar. Auditoriyada jarayon tinch va osoyishta o‘tayotgan edi, biroq shu orada o‘qituvchi orqa partadagi Abdusalom Abdujabbordani nazorat ishi savollarining javoblarini ko‘chirib yo‘zayotganligini sezib qoldi va unga nisbatan k‘ochirib

yoʻzmaslik haqida ogohlantirish berdi. Ammo bu ogohlantirishdan tegishli xulosa chiqarmagan Abdusalom oʻz ishida davom etaverdi. Bundan jahli chiqqan oʻqituvchi Abdusalomga Absalom deya murojaat etdi va jazo siatida unga nazorat ishida unga ball qoʻymasligini va darhol auditoriyadan chiqib ketishini talab etdi. Bundan norozi boʻlgan talaba birinchidan uning ismi Absalom emas, Abdusalom ekanligini, ismini toʻgʻri talaffuz qilishni va bu bilan unga past nazar qilmaslikni aytib oʻtdi. Noʻqulay ahvolda qolgan oʻqituvchi esa toʻgʻzaki nutqda Abduslomni Absalom tarzida masalan Abdujabborni ham Abjabbor tarzida talaffuz qilish mumkinligini eʼtirof etdi. Javobdan qoniqmagan talaba buni oʻziga haqorat deb bilib eshikni qattiq yopib auditoriyadan chiqib ketdi.



- Muammo:**
1. Oʻqituvchining nazorat savollarini tarqatish jarayonidagi qilgan ishi toʻgʻrimi?
 2. Oʻqituvchining Abdusalomga nisbatan qoʻllagan chorasini qanday izohlaysiz?
 3. Talaba Abdusalomning auditoriyada oʻzini tutishi toʻgʻrimi?
 4. Oʻqituvchi talabaning ismini toʻgʻri talaffuz qildimi?
 5. Shunday vaziyatda siz qanday yoʻl tutgan boʻlar edingiz?



- Ечим:**
1. Birinchidan oʻqituvchi vaziyatni notogʻri tashkil etdi. U savollar variantlarini talabalarning soniga moslab taqsimlashi kerak edi.
 2. Ikkinchidan oʻqituvchi bir xil variant berganda talabalarni oʻrnini almashtirishi kerak edi.

Ечим 3. Oʻqituvchi atayin talabaning ismini qisqartirib talaffuz etgan boʻlishi mumkin.

Ечим 4. Pedagogik nuqtayi nazardan tahlil etadigan boʻlsak, auditoriyadan talabalar jamoasi orasida Abdusalomning darsdan chiqib ketishi toʻgʻri emas.

- **Ечим. 5** Har qanday holatda o‘qituvchi ismini to‘g‘ri talaffuz qilishi kerak edi.
- **Ечим. 6** Ўқитувчи талабанинг психофизиологик характер хусусиятларини ҳисобга олган ҳолда жараёнга муносабат билдириши лозим.



KEYS-STADI

MAVZU: Barcha nutq tovushlarining o‘zgarishi xususiyatlari yozma va og‘zaki nutqda bir xil ifodalanadimi?

O‘quv predmeti: Ona tili va adabyoti

Mavzu: Barcha nutq tovushlarining o‘zgarishi xususiyatlari yozma va og‘zaki nutqda bir xil ifodalanadimi?

Keysning asosiy maqsadi: Talabada mustaqil fikrlashni rivojlantirish

O‘quv faoliyatidan kutiladigan natijalar:

- 1) Talabada nutq tovushlarining o‘gzaki nutqda o‘zgarishi haqida tasavvur uyg‘otish;
- 2) Voqea atrofidagi muammolarni shakllantirish;
- 3) Haqiqiy muammoni topa olishga o‘rgatish;

Ushbu keysni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun oldindan talabalar quyidagi bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lmoqlari zarur:

Talaba bilishi kerak: Nutq jarayonida tovushlarning o‘zgarishiga xos

xususiyatlarni sinchiklab o‘rganish.

Talaba amalga oshirishi kerak:

- 1) Fonetik o‘zgarishlarni mustaqil o‘rganadi;
- 2) muammoning mohiyatini aniqlashtiradi;
- 3) fikrlarni ilgari suradi;
- 4) ma’lumotlarni tanqidiy nuqtai nazardan ko‘rib chiqib, mustaqil qaror qabul qilishni o‘rganadi;
- 5) o‘z nuqtai nazariga ega bo‘lib, mantiqiy xulosa chiqaradi;
- 6) o‘quv ma’lumotlar bilan mustaqil ishlaydi;
- 7) ma’lumotlarni taqqoslaydi, tahlil qiladi va umumlashtiradi.

Talaba ega bo‘lmog‘i kerak:

- 1) kommunikativ ko‘nikmalarga;
- 2) taqdimot ko‘nikmalariga;
- 3) hamkorlikdagi ishlar ko‘nikmalariga;
- 4) muammoli holatlar tahlil qilish ko‘nikmalariga.

Manbalardan foydalanish uchun tavsiya etiladigan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Hamrayev M., Muhamedova D., Shodmonqulova D., G‘ulomova X., Yo‘ldosheva Sh. Ona tili. Toshkent, “Moliya-Iqtisod” 2007-yil. -300 bet.
2. Jamolxonov H. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. 2005, “Talqin” nashriyoti
3. Rahmatullayev Sh. Hozirgi adabiy o‘zbek tili. 2006, “Universitet” nashriyoti.

4. Ikromova R., Muhamedova D., Hamrayev M. Ona tilidan mashqlar to'plami. TDPU, Toshkent, 2009-yil. -240 bet.

Keysning texnologik xususiyatlaridan kelib chiqadigan tavsifnomasi:

Keysning asosiy manbai hayotiy vaziyatlar asosida bayon etilgan. Keysning asosiy obyekti fonetik o'zgarishlarga xos xususiyatlar. Bu tashkiliy keys bo'lib, ma'lumotlar vaziyat va savollar asosida tuzilgan. Hajmi qisqa, tizimlashtirilgan, treningga mo'ljallangan, o'quv mavzusi bo'yicha bilim va ko'nikma hosil qilishga qaratilgan. Didaktik maqsadlarga ko'ra, keys muammolarni taqdim qilishga, hal etishga, tahlil qilish va baholashga mo'ljallangan. Keysdan "Ona tili" kurslarini o'tishda foydalanish mumkin.

Kirish qismida fonetik o'zgarishlar haqida ma'lumot beriladi.

Har qanday tilda ham tovushlar yozuvda yozilganidek talaffuz qilinavermaydi. Tovushlar kompleksini (tizimini) birga talaffuz qilish natijasida ayrim tovushlar o'zaro bir-biriga ta'sir qiladi va bu ta'sir tovush o'zgarishiga olib keladi. Masalan, yurt so'ziga o'rin-payt kelishigi affiksi -da, chiqish kelishigi affiksi -dan qo'shilganda, so'z oxiridagi t tovushi affiksdagi d undoshiga ta'sir qilib, uni t tovushiga aylantiradi: yurt+da=yurtda, yurt+dan=yurttan kabi (yozilishi: yurtda, yurtdan). Bir sanoq soniga dona son affiksi -ta qo'shilganda, affiksdagi t undoshning ta'siri bilan so'zning oxiridagi r tovushi t ga o'tadi: bir+ta=bitta kabi. So'z tarkibidagi tovushlar nutq jarayonida bir-biriga ta'sir qilmagan holda ham o'zgarishga uchrashi mumkin. Nutq jarayonida tovushni ketma-ket keltirish yo'li bilan turli ma'noli birlik hosil qilamiz. Mas., *t-o-sh*, *b-o-sh*, *q-o-l*. So'z tarkibidagi tovush alohida-alohida emas, balki uzluksiz talaffuz qilinadi. So'z uzluksiz talaffuz qilinganda, uning tarkibidagi bir tovush hali to'liq talaffuz qilinmay turib, nutq a'zosi ikkinchisiga tayyorlanib turadi. Natijada tovush zanjiri vujudga keladi. Talaffuz qulayligiga intilish tufayli nutq jarayonida tovush zanjirida turli fonetik o'zgarish ro'y beradi. Mas., *tog'* asosiga -ga qo'shimchasini qo'shsak,

asos oxiridagi chuqur til orqa g‘ dan so‘ng til orqa g undoshi kelib, chuqur til orqa tovushidan til orqa tovushiga birdaniga o‘tish qiyinlashadi. Talaffuz noqulayligi vujudga keladi. Ana shu noqulaylikni bartaraf qilish uchun ikkinchi tovush ham chuqur til orqaga aylantiriladi va har ikkisi ham jarangsizlashadi: *tog‘ + ga – toqqa, bog‘ + ga – boqqa* kabi.

Shunday so‘zlarni og‘zaki a yozma nutqda ifodalaganda qanday farqlashimiz haqida fikr yuriting.

II. AMALIY VAZIYATNI BOSQICHMA – BOSQICH TAHLIL QILISH VA HAL ETISH BO‘YICHA TALABALARGA USLUBIY KO‘RSATMALAR

2.1. Talabalarga yo‘riqnoma

Ish bosqichlari	Maslahat va tavsiyalar
1.Keys va uning axborot ta‘minoti bilan tanishish	Keys bilan tanishish. Vaziyat haqida tushuncha hosil qilish uchun mavjud O‘qish paytida vaziyatni tahlil qilishga shoshilmaslik.
2.Berilgan vaziyat bilan tanishish	Ma‘lumotlarni yana bir marta diqqat bilan o‘qib chiqish. Muhim satrlarni b o‘tishdan oldin uni ikki-uch marta o‘qib, mazmuniga kirib borish. Keysda belgilash. Vaziyatni kuzatib, yosh mutaxassis berayotgan axborot mazmunini tiklashga bayon qilishda yo‘l qo‘yilgan xatolikni topishga intilish.
3.Muammoli vaziyatni tahlil qilish	Asosiy muammo va kichik muammolarga diqqatni jalb qilish. Asosiy muammo: Lakunalarning o‘zbek tiliga kirishiga ta’sir qiladigan qanday Quyidagi savollarga javob berishga harakat qilish. Fonetik o‘zgarishga nutqda qanday ifodalashimizni tushuntiring Asosiy muammo nimaga qaratilganini aniqlash. Muammoning asosiy mazmun tahlil qilish – obyektning holatini aniqlash, asosiy qirralariga e’tibor qar tomonlarini tahlil qilish.

4. Muammoli vaziyatni yechish usul va vositalarini tanlash hamda asoslash	Ushbu vaziyatdan chiqib ketish harakatlarni izlab topish maqsadida quyida jadvalini to'ldirishga kirishish. Muammoni yechish uchun barcha vaziyatlar yaratish. Muammoning yechimini aniq variantlardan tanlab olish, muammo to'ldirish. Keys bilan ishlash natijalarini yozma shaklda ilova qilish
---	--

2.2. “Muammoli vaziyat” jadvali

Vaziyatdagi muammolar Turi	Muammoli vaziyatning kelib chiqish sabablari	

2.3. Keys bilan ishlash natijalari yozma shaklda ilova etiladi

Keys – stadi uchun yozma ish talablari: 1. Ish A4 standartdagi varaqning bir tomonida (2-varaqdan oshmagan holda) tezis shaklida yozilishi kerak. 2. Yozma ishni jihozlash tartibi: 1) birinchi betda, o'ng tomonda talaba ismi, sharifi va guruhini yozish; 2) varaqning markazida keysning mavzusini yozish; 3) keyin esa keys bilan ishlash natijalari tezis shaklida yoziladi.

2.4. Keys bilan ishlash qoidalari.

Keysda vaziyat tavsifi va axborot ta'minoti har xil hajmda (bir varaqdan bir necha yuz varaqqacha, tahlil etish uchun taklif etilayotgan vaziyatlar tavsifida detallashtirish darajasi ham turlicha, axborot ko'pligi darajasi ham o'zgarishi – tahlilga aloqasi bo'lmagan ma'lumotlar ham bo'lishi mumkin. Amaliy vaziyatni tahlil qilish vaqtida: 1) taklif etilayotgan axborotlarni ko'rib chiqishda adashmang, ular orasida eng zarurini belgilang; 2) vaziyatni tor istiqbolda ko'rib chiqmang: muammo birdaniga kichiklashib yoki umuman g'oyib bo'lishi mumkin; 3) harakatlar rejasini vaziyatning tahlili tugallangan va muammo aniqlangandan so'ng shakllantiring

2.5. Keys bilan ishlash jarayonini baholash mezonlari va ko'rsatkichlari (mustaqil auditoriyada va auditoriyadan tashqari bajarilgan ish uchun)

Auditoriyan tashqari bajarilgan ish uchun baholash mezonlari va ko'rsatkichlari

Talabalar	Asosiy muammo ajratib olinib, tadqiqot obyekti aniqlangan (mak. 0,6 b.)	Muammoli vaziyatning kelib chiqish sabablari aniq ko'rsatilgan (mak. 0,4 b.)	Vaziyatdan ketish harakatlari ko'rsatilgan (mak. 1 b.)
1			

2.6. Auditoriyada bajarilgan ish uchun baholash mezonlari va ko'rsatkichlari

Guruhlar	Guruh faol (mak. 1 b.)	Ma'lumotlar ko'rgazmali taqdim etildi (mak. 4 b.)	Javoblar to'liq va berildi (mak. 5 b.)
1			

8-10 ball – a'lo

6- 8 ball – yaxshi

4- 6 ball – qoniqarli

0 -4 ball – qoniqarsiz

2.7. Kichik guruhlarda ishlash qoidasi

1. Talabalarning ishini bajarish uchun zarur bilim va masalalarga ega bo'lishi.
2. Guruhlarga aniq topshiriqlar berilishi.
3. Kichik guruh oldiga qo'yilgan topshiriqni bajarish uchun

yetarli vaqt ajratilishi.

4. Guruhlardagi fikrlar chegaralanmaganligi va tazyiqqa uchramasligi haqida ogohlantirilishi zarur.

5. Guruh ish natijalarini qanday taqdim etishini aniq bilishlari, o'qituvchining ularga yo'riqnoma berishi.

6. Muloqotda bo'lish, o'z fikrini erkin namoyon etish.

2.8. O'quv-uslubiy hujjatlar

7. Vaziyatni aniqlashga to'siq bo'ladigan holatlar

8. **Empirik bilimga ustuvorlik berish**- faqat sezgi a'zolari asosidagi bilimlarni haqiqiy bilim deb bilish, mohiyatni ko'rishga intilmaslik.

9. **Falsafiy metodologiyani, dialektikani pisand qilmaslik** – borliq hodisalarini ilmiy o'rganishda falsafiy metodologiyaning keraksizligi haqidagi aqidaga tayanish, bilishning nazariy va amaliy turlarini farqlamaslik, dialektik tafakkurga ega emaslik, falsafani “falsafa falsafa uchun”, “falsafa o'zida” tamoyili asosida baholash.

10. **Infantalizm** – bir ta'limot natijalarini boshqa bir ta'limot tamoyillari asosida o'lchash va ulardagi ziddiyatlarni tushunib yetmaslik

11.III.O'QITUVCHI TOMONIDAN KEYSNI YECHISH VA TAHLIL QILISH VARIANTI

12.1.**Keysdagi asosiy muammo:** Fonetik o'zgarishga o'zgarishga uchragan so'zlarning og'zaki va yo'zma nutqdada har xil ifodalanishi sabablari.

13.. **Muammoli vaziyatni yechish yo'llari:** Keys va uning axborot ta'minoti bilan tanishish. Keys bilan tanishib chiqish. Nutq tovusharining o'zgarishi haqida tasavur hosil qilish uchun bor bo'lgan butun axborotni diqqat bilan

o‘qib chiqish. Muammoni yechish darajasini aniqlash.

14.2. Berilgan vaziyat bilan tanishish. Ma’lumotlarni yana diqqat bilan o‘qib chiqib, muhim bo‘lgan satrlarning tagiga chizish. Bir xatboshidan ikkinchisiga o‘tishdan oldin uni ikki-uch marta o‘qib, mazmuniga kirib borish. Keysdagi muhim fikrlarni aniqlash. Vaziyat tavsifida berilgan asosiy tushuncha va iboralarga diqqatimni jalb qilish:

15.3. Muammoli vaziyatning tahlili. Muammoli vaziyatni tahlil qilishga harakat qilamiz.

Muammoli vaziyat	Muammoli vaziyatning kelib chiqish sabablari	Vaziyatdan chiqib ketish harakatlari
Nutq jarayonida tovushlarning fonetik o‘zgarishga uchrashi	Fonetik o‘zgarishga uchragan so‘zlarning og‘zaki va yo‘zma nutqda har xil ifodalanishi	Fonetik o‘zgarishga uchragan so‘zlarni og‘zaki va yo‘zma nutqda ifodalashda qaysi tamoyillar asosida ifodalash savoliga jaob toppish kerak bo‘ladi

1. O‘tkazilgan tahlillar va natijalar: Muammoli vaziyatni tahlil qilish – obyektning holati aniqlangandan so‘ng, muammoning asosiy qirralariga e’tibor qaratib, muammoli vaziyatning hamma tomonlarini tahlil qilishga harakat qilamiz.

Amaliy mashg‘ulotni tashkil etishda nazorat savollari:

1. Nutqdagi tovush o‘zgarishlari nima?
2. Nima uchun nutqda tovush o‘zgarishi ro‘y beradi?
3. Tovush o‘zgarishlarining qanday turlarini bilasiz?

4. Kombinator o'zgarish nima? Uning qanday turlari bor?
5. Assimilyatsiya nima va uning qanday ko'rinishlarini bilasiz?
6. Dissimilyatsiya nima?
7. Metateza haqida nimalarni bilasiz?
8. Pozitsion o'zgarishlar deganda nimani tushunasiz?
9. Tovushlarning kombinator o'zgarishlari deb nimaga aytiladi?
10. Assimilatsiya va uning turlari haqida aytib bering?
11. Dissimilatsiya hodisasini izohlang.
12. Metateza hodisasiga ta'rif bering
13. Proteza, epenteza, epiteza atamalarini izohlang.
13. Prokopa, sinkopa, apakopa hodisalari qanday hodisalar sanaladi?
14. Fonetik o'zgarishlar tabiatiga ko'ra qanday turlarga ajratiladi?
15. O'zbek tilida singarmonizm ta'sirida qanday fonetik o'zgarishlar mavjud?
16. O'zbek tilida assimilyativ o'zgarishlar haqida ma'lumot bering.

Test topshiriqlari

Yopiq testlar:

1. Javoblar ichidan tovush o'zgarishlarining assimiliyatsiya turiga mansub so'zlar qatorini toping.

*A) Otda-otta, bilakga- bilakka

B) Zarur-zaril, devor- devol

S) Tuproq-turpoq, yog'mir- yomg'ir

D) Fikr - fikir, hukm – hokum

2. Javoblar ichidan tovush o'zgarishlarining dissimiliyatsiya turiga mansub so'zlar qatorini toping.

A) Otda-otta, bilakga- bilakka

B)) Fikr - fikir, hukm – hokum

S) Tuproq-turpoq, yog`mir- yomg`ir

*D) Zarur-zaril, devor- devol

3. Qaysi qatorda tovush o`zgarishlarining metateza turiga mansub so`zlar berilgan?

A) Otda-otta, bilakga- bilakka

B)) Fikr - fikir, hukm – hokum

*S) Tuproq-turpoq, yog`mir- yomg`ir

*D) Zarur-zaril, devor- devol

Ochiq testlar

4. Nutq jarayonida so`z boshida bitta unlining orttirilishidan hosil bo`ladigan tovuush o`zgarishi qanday nomlanadi?

1) epenteza

*2) proteza

3) prokopa

4) dissimilyatsiya

5. Nutq jarayonida so`z boshida, o`rtasida va oxirida ikki undosh qator kelganda, unli tovushning orttirilishidan paydo bo`ladigan tovuush o`zgarishi qanday nomlanadi?

*1) epenteza

2) proteza

3) prokopa

4) dissimilyatsiya

6. Nutq jarayonida soʻz tarkibidagi ayrim tovushlarning talaffuzda oʻrin almashuvi..... deyiladi.

1) epenteza

2) proteza

3) metateza

4) dissimilyatsiya

7. Nutq jarayonidagi tovush oʻzgarishlarining pozitsion oʻzgarishlarini ularning hosil boʻlishiga koʻra tasniflang.

№	Nutq jarayonida tovushlarning oʻzgarishi	№	turlar
1	soʻz boshida bitta unlining orttirilishi	A	epent
2	soʻz boshida, oʻrtasida va oxirida ikki undosh qator kelganda, unli tovushning orttirilishi	B	Prote
3	soʻz oxirida bir oʻrinda kelgan ikki undoshdan soʻng a tovushining qoʻshilish hodisa	S	proko
4	prokopa soʻz boshida unli yoki undosh tovushning tushib qolish hodisasi	D	epitez
5	soʻz oʻrtasidagi va oxiridagi keng unlilar tor unlilar kabi talaffuz qlinadi va ayrim holatlarda tushib qoladi	E	apako
6	soʻz oʻzigidagi oxirgi unli yoki undoshning tushishi hodisasi	J	sinko

7	soʻz oʻrtasida bir joyda kelgan ikki unlining biri kuchsizlanadi va nutqda tushib qoladi, ikkinchi unli fonema esa choʻziq talaffuz qilinadi					Z	reduk
8	soʻzning birinchi boʻgʻinida biror unlining (odatda tor unlining) kuchsizlanib talaffuz qilinishi					K	sinere
9	unli bilan tugaydigan va unli bilan boshlanadigan ikki soʻzning qoʻshilishi natijasida unli tovushdan birining tushib qolish hodisasi					L	eliziy
Javob	1	2	3	4	5	6	7
Javobi	1-B	2-A	3-D	4-S	5-J	6-E	7-K

8. Quyida berilgan soʻzlarni tovush oʻzgarishlarining turlariga ajratib chiqing va mos aqamlarni jadvalning mos raqamlar qismiga yozing.

- 1) Otda-otta, bilakga- bilakka; 2) fikr - fikir, hukm – hokum; 3) Tuproq- turpoq, yogʻmir- yomgʻir; 4) Zarur-zaril, devor- devol; 5) yigna - igna, yogʻoch - ogʻoch; 6) traktor - traktir, direktor – direktir; 7) doʻst - doʻs, xursand – xursan ; 8) maorif - mo:rif, saodat - so:dat

Tovush oʻzgarishi turi	Javob raqamlar
Sinerezis	8
Metateza	3
Dissimilyatsiya	4
Epenteza	2
Prokopa	5

Apakopa	6
Sinkopa	7
Assimiliyatsiya	1

9. Quyida berilgan fikrlarning qaysilari to'g'ri?

- A. Har qanday tilda ham tovushlar yozuvda yozilganidek talaffuz qilinavermaydi.
- B. Tovushlar kompleksini (tizimini) birga talaffuz qilish natijasida ayrim tovushlar o'zaro bir-biriga ta'sir qiladi va bu ta'sir tovush o'zgarishiga olib keladi
- C. So'z tarkibidagi tovushlarning bir-biriga o'zaro ta'siri natijasida ro'y beradigan tovush o'zgarishi (fonetik o'zgarish) ppozitsion o'zgarish deyiladi.
- D. epiteza so'z oxirida bir o'rinda kelgan ikki undoshdan so'ng a tovushining qo'shilish hodisasidir
- E. proteza so'z o'zigidagi oxirgi unli yoki undoshning tushishi hodisasidir
- G. eliziya unli bilan tugaydigan va unli bilan boshlanadigan ikki so'zning qo'shilishi natijasida unli tovushdan birining tushib qolish hodisasidir.

Javob:

Javob: A, B, D, G.

10. Nuqtalar o'rniga mos raqamlarni qo'ying.

So'z tarkibidagi tovushlarning bir-biriga o'zaro ta'siri natijasida

Tovushning so'zdagi o'rni, urg'uli yoki urg'usiz bo'g'inda kelishi bilan bog'liq holda.....

- 1) tovushlardan biri ikkinchi bir tovushni o'ziga aynan yoki qisman o'xshatib oladi;
- 2) ikkita aynan yoki qisman o'xshash tovushdan biri yoki har ikkalasi talaffuzda o'zgarib, noo'xshash tovushga aylanib qoladi;

- 3) so‘z tarkibidagi ayrim tovushlarning talaffuzda o‘rin almashuvi;
- 4) so‘z boshida bitta unlining orttirililadi;
- 5) so‘z boshida, o‘rtasida va oxirida ikki undosh qator kelganda, unli tovushning orttiriladi;
- 6.) so‘z boshida, o‘rtasida va oxirida ikki undosh qator kelganda, unli tovushning orttiriladi;

Жавобу:

So‘z tarkibidagi tovushlarning bir-biriga o‘zaro ta‘siri natijasida 1,2,3.

Tovushning so‘zdagi o‘rni, urg‘uli yoki urg‘usiz bo‘g‘inda kelishi bilan bog‘liq holda4,,5,6.

Assesment topshiriqlari

1-variant

TEST	MUAMMO
1.Qaysi savol noto‘g‘ri tuzilgan? A)Nutq tovushlarini hosil qilishda nutq organlaridan qaysilari ishtirok etadi? B)Nutq tovushlari hosil qilishda qaysi nutq o‘rganlari faol ishtirok etadi? C)Qaysi unli tovushlarni talaffuz qilganda havo oqimi og‘iz bo‘shlig‘ida ayrim to‘siqlarga uchraydi? 2.X undoshiga to‘g‘ri tavsif berilgan javobni toping. A) Chuqur til orqa, sirg‘aluvchi, jarangsiz, undosh tovush B) Bo‘g‘iz, sirg‘aluvchi, jarangsiz, undosh tovush S) Chuqur til orqa, sirg‘aluvchi, jarangli undosh tovush	Takt Fonetik so‘z Misollar bilan farqlab bering

SIMPTOM Nutqdagi fonetik o'zgarishlar (belgilarini yozing) - -	AMALIY TORSHIRIQ Quyidagi jumlaning segmentlarga ajrating: <i>Universitetning filologiya, fizika, tarix fakultetlarida ishlar samarali ketmoqda</i>
--	--

2-variant

TEST <i>1. Sirg'aluvchi tovushlar ko'rsatilgan qatorni aniqlang?</i> A) Sh,j,k B) S,z,sh C) M,n,x <i>2. Qaysi qatordagi so'zlarda sirg'aluvchi "J" tovushi berilgan?</i> A) Janob, Jamshid, Jomiy B) Jar, ajin, ajdar C) G'ijdivon, gijda, mujda	MUAMMO Fonema va uning variantlari, variant va invariant tushunchasi izohlang
SIMPTOM Fonetik o'zgarishlar (belgilarini yozing) -	AMALIY TORSHIRIQ Quyidagi so'zlardagi undosh tovushlarni tahlil qiling: <i>Sabr, qanoat, vaqt, kuz, yoz</i>

2.6. Mustaqil ta'limni tashkil etishning shakli va mazmuni

Talaba mustaqil ta'limda "Ona tili va adabiyot" fanining xususiyatlarini hisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalanishi tavsiya etiladi:

- darslik va o'quv qo'llanmalarining alohida boblari va mavzularini tahlil qilish, tanqidiy yondashish;
- tegishli mavzularga tarqatma materiallar tayyorlash;
- matn tahliliga oid qo'shimcha savol va topshiriqlar tizimini ishlab chiqish;
- alohida olingan mavzu bo'yicha esse va referatlar tayyorlaydi;
- nutq jarayonida tovushlarning o'zgarishiga oid yangi adabiyotlarning obzorini tuzish;
- ilmiy-metodik jurnallarning yangi sonidan nutq jarayonida tovushlarning o'zgarishi xususiyatlariga oid maqolalarning annotatsiyasini yozish;
- yangi adabiyotlarga taqrizlar yozish.

Tavsiya etilayotgan mustaqil ta'lim mavzulari:

1. Fonetik o'zgarishlarni tabiatiga ko'ra qanday turlarga ajratish mumkin?
2. Kombinator o'zgarishlar va ularning turlari.
3. Pozitsion o'zgarishlar va uning turlari.
4. Fonetik moslashtirish va ularning sabablari.
5. Eliziya va aferezis.
6. Agglyutinatsiya va fuziya hamda ularning o'zaro ta'sirini tushuntiring.
8. Fonetik o'zgarishlar
9. O'zbek tilida singarmonizm ta'siridagi o'zgarishlar
10. O'zbek tilida assimilyativ o'zgarishlar
11. Intervokal holatdagi o'zgarishlar
12. Unlilar reduksiyasi
13. Dissimilyativ o'zgarishlar va ularning turlari.

14. Assimilyativ o'zgarishlar va ularning turlari

GLOSSARY

Fonetika – eng quyi lisoniy sath va tilshunoslikning shu sathni o'rganadigan sohasi. Fonetika (gr. *pho net i k o s* – tovushga, ovozga xos) tilshunoslikning boshqa sohalaridan farqli o'laroq, nafaqat o'rganish manbaining funksional tomonini, balki nutq tovushlarini hosil qiluvchi talaffuz apparatini, shuningdek, ularning akustik xossalarini va til egalari tomonidan qabul qilinish jihatlarini ham tekshiradi.

Fonema-So'zdan tashqarida, alohida olingan nutq tovushi fonema. Eng kichik lisoniy birlik fonema. Fonema muayyan til egalarining ma'lum tovushlar tipi haqidagi umumiy tasavvurlari. Har bir fonema so'zlovchilar ongida o'z tipini farqlovchi belgilari majmui asosida vujudga kelgan maxsus «akustik-artikulyatsion portret» yoki «tovushlar obrazi» sifatida saqlanadi. Muayyan fonemaning farqlovchi belgilari uning artikulyatsion va akustik xususiyatlari asosida shakllanadi. Artikulyatsion belgilar muayyan tovushlarni talaffuz qilish uchun nutq a'zolarining bir xildagi harakatga moslashgan avtomatik, standart holatlari haqidagi tasavvur bo'lsa, akustik belgilar sifatida bir turdagi tovushlarga xos talaffuz sifati va miqdori tushuniladi.

Fonetik o'zgarish – nutqda qulaylik, tejam uchun tovushlarning bir-biriga ta'siri natijasida yoki tutgan o'rniga ko'ra tushib qolishi, orttirilishi, almashishi, moslashishi kabi o'zgarish hodisasi. Nutq jarayonida tovushni ketma-ket keltirish yo'li bilan turli ma'noli birlik hosil qilamiz. Mas., *t-o-sh*, *b-o-sh*, *q-o-l*. So'z tarkibidagi tovush alohida-alohida emas, balki uzluksiz talaffuz qilinadi. So'z uzluksiz talaffuz qilinganda, uning tarkibidagi bir tovush hali to'liq talaffuz qilinmay turib, nutq a'zosi ikkinchisiga tayyorlanib turadi. Natijada tovush zanjiri vujudga keladi.

Kombinator o'zgarishlar - So'z tarkibidagi tovushlarning bir-biriga o'zaro ta'siri natijasida ro'y beradigan tovush o'zgarishi (fonetik o'zgarish)

Assimilyatsiya- tovushlardan biri ikkinchi bir tovushni o'ziga aynan yoki qisman o'xshatib olishi.

Progressiv assimilyatsiya- oldingi tovush o'zidan keyingi tovushni o'ziga o'xshatib olishi.

Regressiv assimilyatsiya- keyingi tovush o'zidan oldingi tovushni o'ziga o'xshatib olishi.

Dissimilyatsiya- ikkita aynan yoki qisman o'xshash tovushdan biri yoki har ikkalasi talaffuzda o'zgarib, noo'xshash tovushga aylanib qolishi.

Singarmonizm- unlining nutq jarayonida o'zgarishi *singarmonizm* deyiladi.

Singarmonizm - Unlining nutq jarayonida o'zgarishi *singarmonizm* deyiladi. Singarmonizm unlining moslashishi, uyg'unligi demakdir. U faqat turkiy tillarga xos. Singarmonizmning ikki asosiy ko'rinishi farqlanadi: a) til garmoniyasi; b) lab garmoniyasi.

Tovush o'zgarishi turi- Fonetik qonuniyat asosida yuz beradigan o'zgarish turini sanaymiz.

Tovush moslashishi -(assimilatsiya). Assimilatsiya – lotincha *assimilare* – o'xshatib olish demak. Tovush moslashishi to'liq va to'liqsiz bo'lishi mumkin. Tovush moslashishi to'liq (*yoq + sin = yossin*) yoki qisman (*yoq + sa = yoxsa, tanbur – tambur*) moslashish bo'ladi.

Progressiv moslashish - oldingi tovush keyingi tovushni o'xshatib oladi. Masalan: *otdan – ottan, ishdan – ishtan, soldat – sollat* va boshqalar.

Regressiv moslashish - da keyingi tovush oldingi tovushni o'xshatib oladi: *shanba – shamba, ichsa – issa, oqshom – oxshom, tuzsiz – tussiz* kabi.

Tovush noo'xshashligi (dissimilatsiya). - Dissimilatsiya lotincha *dissimilare* – noo'xshashlik degani, bu fonetik hodisada tovushning ta'siri natijasida noo'xshash tovush talaffuz qilinadi. Tovush noo'xshashligi hodisasi ham ikki xil bo'ladi:

Progressiv noo'xshashlik - oldingi tovush ta'sirida keyingi tovush paydo bo'lish o'rni va usulini o'zgartiradi va tovushning sifatida o'zgarish –

noo‘xshashlik yuzaga keladi. Masalan: *zarur – zaril, zarar – zalal, birorta – bironta, madad – madat, kabob – kabop, rubob – rubop* kabi.

Regressiv noo‘xshashlik- keyingi tovushning ta’siri bilan oldingi tovushda o‘zgarish ro‘y beradi. Masalan: *po‘chta – po‘shda, maqtanchoq – maxtanchoq, uchta – ushta* kabi. Ba’zi so‘zda har ikki hodisa (tovush moslashishi va tovush noo‘xshashligi) ham uchraydi. Masalan: *uchdi – uchti – ushti, ichdi – ichti – ishti* kabi.

Metateza- Og‘zaki nutqda ba’zan yonma-yon kelgan undosh tovushning o‘rni almashishi mumkin. Nutqdagi bunday jarayon metateza deyiladi: *r – y: daryo – dayro; m – g: yomg‘ir – yog‘mir, b – r: tebratmoq – terbatmoq; m – l: yamlamoq – yalmamoq; h – v: ahvol – avhol; p – r: tuproq – turpoq, r – g: o‘rganmoq – o‘granmoq; g – r: to‘g‘ramoq – to‘rg‘amoq, n – m: aylanmoq – aynalmoq* va boshqa.

Proteza- So‘z boshida bitta unlining orttirilishi **proteza** hodisasi sanaladi. Odatda, aksariyat sonor *r* tovushidan oldin *o‘, u* unlisi orttiriladi: *ro‘mol – o‘ramol, ro‘za – o‘raza, rayhon – o‘rahon, rozi – o‘rozi, rais – o‘rais, rang – o‘rang, ro‘zg‘or – o‘razg‘or, rustam – urustam* kabi.

Epenteza- So‘z boshida, o‘rtasida va oxirida ikki undosh qator kelganda, ular orasida *i*, ba’zan *u* va *a* unlisi orttiriladi: *fikr – fikir, hukm – hukum, doklad – dakalad, klass – kilass*.

Epiteza- So‘z oxirida bir o‘rinda kelgan ikki undoshdan so‘ng *a* tovushining qo‘shilish hodisasidir: *disk – diska, bank – banka, tank – tanka, kiosk – kioska, otpusk – otpuska* kabi. Tovush orttirish o‘zbek tilining o‘ziga xos talaffuz qoidasi asosida ro‘y beradi. O‘zbek tilida ikki undosh qator talaffuz qilinmaydi yoki ma’lum tovush (*h, r*) bilan so‘z boshlanmaydi.

Prokopa.- Bunda so‘z boshida ba’zan unli yoki undosh tovush tushib qoladi: *yiroq – iroq, yigna – igna, yig‘ach – ag‘ach, yirik – irik, yuz – uz*.

Sinkopa- hodisasiga binoan so‘z o‘rtasidagi va oxiridagi keng unli tor unli kabi talaffuz qilinadi va ayrim holatda tushib qoladi: *valochka – valichka, traktor*

– *traktir*, *avtor* – *avtir*, *direktor* – *direktir*, *generator* – *generatir* kabi.

Apakopa – soʻz oʻzagidagi oxirgi unli yoki undoshning tushishi hodisasi: *doʻst* – *doʻs*, *xursand* – *xursan*, *gazeta* – *gazit*, *smena* – *smen* va hokazo.

Sinerezis- hodisasiga koʻra soʻz oʻrtasida bir joyda kelgan ikki unlining biri kuchsizlanadi va nutqda tushib qoladi. Ikkinchi unli tovush esa choʻziq talaffuz etiladi: *maorif* – *mo:rif*, *saodat* – *so:dat*, *qiroat* – *qiro:t*, *jamoat* – *jamo:t*. Bu hodisa asl oʻzbekcha soʻzga xos emas.

Reduksiya – soʻzning birinchi boʻgʻinida biror unlining, odatda, tor unlining kuchsiz talaffuz qilinishi. Mas., *bir*, *bil*, *til* soʻzlari bir boʻgʻinli boʻlganligi va urgʻu shu soʻzdagi *i* unlisiga tushganligi tufayli u meʼyordagidek talaffuz qilinadi va eshitiladi.

Eliziya – unli bilan tugovchi va boshlanuvchi ikki soʻzning qoʻshilishi natijasida unlidan birining tushib qolish hodisasi. Bunda bir necha holat kuzatiladi; a) birinchi soʻz oxiridagi unli tushib qoladi: *yoza oladi* – *yozoladi*, *bora oladi* – *boroladi*, *qora ot* – *qorot*; b) unli bilan boshlanuvchi ikkinchi soʻzning bosh unlisi tushib qoladi: *borar ekan* – *borarkan*, *borar emish* – *borarmish*, *yozgan ekan* – *yozgankan* kabi; d) Abdusalom soʻzining *Absalom*, *Abdujabbor* soʻzining *Abjabbor*, *olib kel* soʻzining *opke* tarzida talaffuz qilinishi natijasida bir unli va bir undoshning tushib qolishi ham eliziyaning yuqori, murakkablashgan shakli hisoblanadi. Eliziyaning murakkablashishi natijasida soʻzning qisqargan shakli hosil boʻladi.

Xulosa va tavsiyalar

1. Bitiruv loyiha ishda tanlangan mavzu boʻyicha maʼlumotlar nazariy jihatdan oʻrganib chiqildi. Kerakli boʻlgan bir qator zarur ilmiy-metodik adabiyotlar tahlil qilindi. Shuuningdek, pedagogik texnologiyalarni ona tili fanini oʻqitishda qoʻllanilishiga oid kerakli ilmiy-uslubiy manbalar oʻrganildi va tahlil qilindi. Malaka oshirishda olingan bilimlarga tayangan holda malakaviy loyixa ishda ona tili fanidan 2-soatlik maʼruza va amaliy mashgʻulotlarni interfaol

metodlardan foydalangan holda dars ishlanmalari tayyorlandi.

2. Ushbu bitiruv loyiha ishida asosan, ta'lim jarayonida talabalarni faollashtirishga qaratilgan "Aqliy hujum", "Venn diagrammasi", "Klaster" texnologiyalaridan ma'ruza va amaliy darslarni o'tkazishda va boshqa interfaol metodlardan foydalanish haqida to'xtaib o'tildi. Bu albatta ta'lim samaradorligini oshishiga xizmat qiladi hamda talabalarda shaxsiy sifatlarning rivoshlanishiga, ulardagi iqtidorning yanada yaqqol namoyon bo'lishida, mustaqil fikr yuritish ko'nikmalarining shakllanishiga va mavzularni yuqori darajada o'zlashtirib olishlariga yordam beradi. Talabalar va o'qituvchi o'rtasidagi o'zaro hamkorlikni ta'minlaydi, hamda talabalarning ko'proq o'z ustilarida ishlash ma'suliyatini oshiradi. Chunki, interfaol metodlarda o'qituvchi ta'yyor bilimni bermaydi, u talabalarni to'g'ri yo'l sari yo'naltiradi. Fikrlarni jamlashga o'rgatadi, savollar yordamida muammoning yechimini topishga undaydi.

3. Bugungi kunda interfaol metodlar o'z maqsadi va mohiyatiga ko'ra an'anaviy ta'limdan farq qilib, ta'lim oluvchi shaxsining ichki imkoniyatlarini namoyon qilish, rivojlantirish uchun qulay sharoitni yaratishga xizmat qiladi. Bunda ta'lim oluvchilarning o'zlarini o'quv faoliyatining sub'ekti sifatida his qilishlari, o'z ustida ishlashlari, o'z-o'zini rivojlantirishlari muhim ahamiyat kasb etadi.

4. Bugungi kunda interfaol metodlar vositasida "Nutq jarayonida tovushlarning o'zgarish" modulini o'qitish asosida bo'lajak o'qituvchilarda fuqarolikka doir kompetentlikni rivojlantirish O'zbekiston Respublikasida fuqarolik jamiyati barpo etilayotgan mavjud sharoitda dolzarb pedagogik ahamiyatga ega masalalardan biri hisoblanadi.

5. Talaba sifatida bo'lajak o'qituvchilar ona tilini puxta o'rganishlari va o'z faoliyatlarida olgan bilimlarini o'quvchilarga mohirona tarzda yetkaza bilishlari lozim.

6. Bo'lajak o'qituvchilarda ona tilini o'rganishga doir kompetentlikni rivojlantirishga yo'naltirilgan pedagogik jarayonning talabaga hurmat bilan

yondashish, qiziqish va ehtiyojlarini inobatga olish, ishonch va tashabbuslarni qo'llab-quvvatlash, hamkorlik, subyektivlik, tanlash va individual yondashuv kabi tamoyillarga asoslanishi ularni ta'lim muassasasi va jamiyat ijtimoiy hayotiga faol jalb etishda o'ziga xos ahamiyat kasb etadi.

7. Nutq jarayonida tovushlarning o'zgarishi holati asosan o'g'zaki nutq bilan bog'liq holda bo'ladi. Ko'pgina so'zlarni talaffuz qilishda o'zgarishlar yuzaga kelmoqda. Shu tufayli ham so'zlardagi tovushlarning talaffuzini aniqlash uchun maxsus laboratoriya xonalarini tashkil qilish va bu xonalarda tovushlarning eshitilishini ko'rsatib beradigan maxsus akustik apparatlardan foydalangan holda laboratoriya asosida dars jarayonlarini tashkil etish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

8. Fanning o'quv dasturi me'yoriy hujjat sifatida Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim faoliyating asosi bo'lib hisoblanadi, unda o'quv fanlari bo'yicha talabalar tomonidan o'zlashtiriladigan asosiy bilim, zaruriy ko'nikma va malakalar nazarda tutiladi. Bugungi kunda oliy ta'lim muassasalarida fanlar bo'yicha o'quv dasturlarini tuzishda metodik ko'rsatmalar va yo'riqnomalarning mavjud emasligi hozirgi kunda o'z yechimini kutayotgan dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Shunday ekan, davlat ta'lim standarti, o'quv reja va fan dasturlarini tuzishda tayanch OTMlari bilan birgalikda turdosh OTMlarning hamkorligini mustahkamlash va takomillashtirish maqsadga muvofiqdir.

9. Oliy ta'lim muassasalarida "Ona tili" fanini o'qitish jarayonida yangi pedagogik texnologiyalarni keng joriy etish uchun ta'lim muassasalarida faoliyat olib borayotgan professor-o'qituvchilarga innovatsion ta'lim texnologiyalarini optimal qo'llash masalalari bo'yicha o'z sohasini yetuk mutaxassislarini jalb etgan holda, maxsus seminar-treninglar tashkil etish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Karimov I. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. - Toshkent: Ma'naviyat, 2008.
2. Karimov I. Xavfsizlik va tinchlik uchun kurashmoq kerak. 10 – t. - Toshkent: O'zbekiston, 2002.
3. Karimov I. Milliy istiqlool mafkurasi – xalq e'tiqodi va buyuk kelajak ishonchidir. T., “O'zbekiston” – 2000.
4. Abdurahmonov G'., Mamajonov S. O'zbek tili va adabiyoti. – Toshkent: O'zbekiston, 2002.
5. Amonashvili Sh.A. va b. Pedagogik izlanish. T., “O'qituvchi” – 1990, 608 b.
6. Abduazizov A. O'zbek tilining fonologiyasi va morfonologiyasi. T.: O'qituvchi, 1992.
7. H. Jamolxonov. Hozirgi o'zbek adabiy tili. 2005, “Talqin” nashriyoti
8. R. Ikromova, D. Muhamedova, M. Hamroyev. Ona tilidan mashqlar to'plami Toshkent, 2009-yil
9. Karimov S. O'zbek tilining badiiy uslubi. – Samarqand: Zarafshon, 1992.
10. Madrahimov I. O'zbek tili leksemalarining tarkibiga doir // O'zbek tili va adabiyoti, 2002, 4 – son.
11. Mirtojiyev M. O'zbek tili fonetikasi. T., 2005.
12. Nurmonova D. Fonologik ziddiyatlar va ularning mo'tadillashuvi. // O'TA. № . 1998.
13. Nabieva D. O'zbek tilining turli sathlarida umumiylik-xususiylik dialektikasining namoyon bo'lishi. T., Sharq, 2005.
14. Ne'matov H., Bozorov O. Til va nutq. – Toshkent: O'qituvchi, 1993.
15. Sh. Rahmatullayev. Hozirgi adabiy o'zbek tili. 2006, “Universitet”

nashriyoti

16. Rahmatullaev Sh. Til qurilishining asosiy birliklari. –T.: Universitet, 2002.

17. Hojiyev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lugʻati. – Toshkent: Oʻzbekiston milliy ensiklopediyasi nashriyoti, 2002.

18. Rahmatullaev Sh. Til qurilishining asosiy birliklari. –T.: Universitet, 2002.

19. Q. Yoʻldoshev. Oʻzbek tilining tarixiy fonetikasi. T-1992.

20. R. Sayfullayeva. Hozirgi oʻzbek adabiy tili”. T-2009

21. Oʻzbekiston Respublikasi Davlat taʼlim standarti. “Boshlangʻich taʼlim” jurnali. 1998, № 6, 32 b.

22. Z. Otamirzayeva, M. Yusupova. Oʻzbek tili. 2004, OʻAJBNT» markazi

23. Z. Xolmanova. Tilshunoslikka kirish www.ziyouz.com kutubxonasi

24. M. Hamroyev, D. Muhamedova, D. Shodmonqulova, X. Gʻulomova, SH. Yoʻldosheva. Ona tili. Toshkent, 2007-yil.

25. Yusupova SH. Noanʼanaviy dars – talabi. Andijon – 2002, 54 b.

Elektron taʼlim resurslari

www.tdpu.uz

www.pedagog.uz

www.ziyouz.net

www.edu.uz

www.oʻzbekadabiyoti.com